

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKUL`TETI
O`ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

Qo`lyozma huquqida

“404” guruhi talabasi

XAKIMOV SAN`ATBEK MO`MINJON O`G`LI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O`ZBEKISTONDA AN`ANAVIY
XUNARMANDCHILIK**

*5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo`yicha) ta`lim
yo`nalishi bo`yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari:

katta o`qituvchi Abduraupov O

Andijon-2018 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	- 3-5
I -bob. Milliy hunarmandchilikning tarixiy va nazariy jihatlar	- 6-17
II – bob. Xonliklar davrida milliy hunarmandchilikning ahvoli	- 18-23
III – bob. Mustaqillik davrida milliy hunarmandchilik tarixiga yangicha yondashuv	-24-31
IV – bob. Mustaqillik yillarida xukumatimiz milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlari	-32-47
Xulosa	-48-50
Foydalanilgan adabiyotlar	-51-53

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalq amaliy san'ati turfa, rang-barang va etnografik jihatdan o'ziga xosdir. O'zbeklarning boy madaniy merosi va xalq amaliy hunarmandchilik an'alarini chuqur tadqiq etishga keng imkoniyatlar mustaqillik davridan boshlandi desak mubolag'a bo'lmas.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak".¹

1991 yili O'zbekiston o'zining mustaqilligini e'lon qilishi muhim voqea bo'lib, an'anaviy badiiy hunarmandchilikning rivojida ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Davlatimiz mustaqil rivojlanishining ilk bosqichlaridagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, madaniyat va amaliy san'at sohasiga alohida e'tibor qaratdi. Boy tarixga ega millatning o'zini anglash, madaniy meros va an'anaviy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi.

Xalq amaliy san'atini katalogizatsiya, inventarizatsiya qilish – hozirda mavjud bo'lgan an'anaviy xalq hunarmandchilik markazlarini, ustalarni, buyumlarni, badiiy an'analarni etnologik jihatdan qayd qilish, ularni o'rganish masalasi, bugun nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro hamjamiyat doirasida dolzarbligi sezilmokda. Shuning uchun bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikni ilmiy tadqiq etish, uning tarixi, ayrim markaz va hududlar hunarmandchiligining badiiy va texnologik xususiyatlari, hamda ularni etnologik manba sifatida chuqur o'rganish, xalq ustalari va yo'qolib borayotgan

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: 1997. – 150 б.

hunarmandchilik an'analarini aniqlash va shu asosda uning betakror an'analarini tiklash va rivojlantirish jarayoni dolzarb vazifalardan biridir. Malakaviy bitiruv ishda shu xususda ya'ni o'zbeklarning an'anaviy xalq amaliy san'atining muhim etnologik manba ekanligini ko'rsatish va tahlil etish deya belgilab oldik. Zero o'zbek xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik an'analarini tiklash, rivojlantirish borasida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni o'rganish etnologiya sohasida nihoyatda muhim o'ringa ega hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishi ishining ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Malakaviy bitiruv ishi mavzusi Andijon davlat universiteti tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasidan bakalavrlarning ilmiy-tadqiqot yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan mavzular rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Asosiy maqsad o'zbek xalq amaliy san'ati xususiyatlari va ularning etnografik manba sifatidagi o'ziga xos jihatlari tadqiq etishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan bir qator vazifalar qo'yildi:

- o'zbek xalq amaliy san'ati namunalarini tavsiflash va ularni to'plangan ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etish;
- an'anaviy amaliy san'atning etakchi turlarini tavsifiy tadqiq etish asosida etnologik xususiyatlarini aniqlash;
- an'anaviy xalq amaliy san'ati buyumlari naqshlarining tasnifi orqali ularni etnologik tavsiflash hamda ta'riflash;
- Kashtachilik maktablari an'analarining etnografik xususiyatlari va kashtachilik an'analarini saqlash, qaytadan tiklash sohasidagi reja hamda muammolar bilan tanishish;

Tadqiqot ob'ekti sifatida XX asr boshlariga xos bo'lgan amaliy san'at namunalari saqlanayotgan Andijon viloyati O'lkashunoslik va xalq amaliy san'ati muzeyi tadqiqot ob'ekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot predmeti – O'zbekiston va xorijiy muzeylar kolleksiyalarida saqlanayotgan turli xalq amaliy san'ati namunalari, xususan kashta buyumlari, ularning badiiy xususiyatlari, texnologiya uslublari va bugungi kundagi maishiy

hayotdagi o'rnini, ularni saqlash, qayta tiklash kabi masalalar tadqiqot predmeti sifatida olingan.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqot metodologik asosini milliy mafkura, milliy g'oya nuqtai nazaridan an'anaviy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish, avloddan-avlodga etkazib berish kabi tamoyillardan kelib chiqqan holda, mavjud ilmiy-nazariy tamoyillar, amaliy san'at tarixi va nazariyasi bo'yicha etnologiya sohasida qo'lga kiritilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Xususan, B.Karmo'sheva, O.Suxareva, G.Chepelevetskaya, A.Pisarchik, A.Hakimov, K.Akilova, E.Gyul, Q.Jumaev, Sh.Abdullaeva kabi etnograf va san'atshunos olimlarning monografiya va qo'llanmalari, ilmiy maqolalari bitiruv ishi mavzusini yoritishda asosiy nazariy manba sifatida ahamiyatli bo'ldi.

Ilmiy yangiligi. O'zbekistondagi xalq amaliy san'ati maktablarining o'ziga xos etnografik xususiyatlari hamda ushbu mintaqa kashtachilik san'atining an'alarini saqlash va tiklash, muhim etnografik manba sifatida kabi muammolar etnologik nuqtai nazaridan o'rganildi.

Naqsh motivlari tarkibi imkon qadar mufassal ravishda o'rganilib, ijodiy va semantik xususiyatlari tahlil etildi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Malakaviy bitiruv ishining umumiy hajmi 48 bet, adabiyotlar ro'yxati bilan 50 betni tashkil etadi.

I - bob. Milliy hunarmandchilikning tarixiy va nazariy jihatlar

Arxeologik tadqiqotlarning ma'lumotlariga ko'ra, xunarmandchilik tarixi juda qadim o'tmishga borib taqaladi. Olimlarning e'tirof etilishlaricha, insoniyat paydo bo'lgan davrdanoq davstavval, tosh, suyak va ayrim xollarda yog'ochdan mehnat hamda kundalik ehtiyojlari uchun qurollar (ibtidoiy davr, paleolit) yasab hunarmandchilik tarixini boshlagan bo'lsa, keyinroq esa (so'nggi paleolit, mezolit) qoyatoshlar va daralarga har xil manzaralarni tasvirlab tasviriy san'atga asos solgan¹.

O'zbekiston, umuman, O'rta Osiyo hunarmandchiligi, san'ati, qolaversa, madaniyati tarixi bo'yicha juda ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan hamda bu yo'nalish alohida mavzu hisoblanadi². Dissertatsiyaning ushbu bo'limida xunarmandchilik tarixiga ekskurs tarzida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

O'zbekiston xalqlari o'zlarining hunarmandchilik san'ati tarixida yirik bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari bilan farqlanadi. Shu bilan birga, mahalliy an'analarning yangi asoslarda, qo'shilish va uyg'unlashuv uslublarida taraqqiy etganligi ko'zatiladi. Ushbu taraqqiyot jarayoni takomillashishi va yangilanish xususiyatlariga ko'ra davriy jihatdan quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Paleolit-eneolit - hunarmandchilikning paydo bo'lishi va mintaqaviy xususiyatlariga ko'ra (Janubiy Turkmaniston, Janubiy O'zbekiston, Farg'ona vodiysi va boshqa) taraqqiy etishi;

2. Bronza davri - mil. avv. III-II ming yilliklarda mintaqaning o'troq dehqonchilik vohalarida dastlab shaharmonand, keyin esa ilk shahar madaniyatiga o'tilishi munosabati bilan Old Osiyo madaniyati bilan uyg'unlashgan Qadimgi Sharq ko'rinishidagi xunarmandchilik san'atining rivoj

¹ Массон В. М. Вопросы культурного наследия. - Ашгабад, 2002. - 316 с. (Ушбу асарнинг 114-167 бетлари Фарғона водийси хунармандчилиги тарихига бағишланган).

² Бу ҳақда янада батафсилроқ маълумот олиш учун қarang: Массон В.М. Культурогенез Древней Центральной Азии / Под ред. Л. Б. Кирчо. - СПб: Изд. СПб. Университета, 2006. - 384 с.

topishi;

3. Ilk temir asri - mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida ilk davlat uyushmalarining shakllanishi natijasida qadimgi shahar markazlarida sohalarga (ayniqsa, kulolchilik, metallga ishlov berish, qisman zargarlik) ixtisoslashgan xunarmandchilik mahallalarining faoliyat ko'rsatishi;

4. Antik davr xunarmandchiligi - mil. avv. IV - milodiy III asrlar, bu davr san'ati Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona va Xorazm an'alariga asoslanib sharqiy ellinizm an'alarini o'zida uyg'unlashtiradi hamda yangi ko'rinishlarda taraqqiy etadi. Ayniqsa, Kushon davriga kelib san'at asarlarining mavzusi, manzarasi, ishlanish uslublarida ko'pgina yangiliklar paydo bo'ladi;

5. IV-V asrlar - ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan mahalliy san'atdagi inqiroziy xolatlar;

6. VI-XIX asrlar - turli tarixiy sulolalar xukmronligi davri bo'lib, mahalliy xalqlar san'ati va madaniyatining turli sohalarda gullab- yashnashi hamda dunyo miqyosida e'tirof etilishi davri bo'ldi¹.

O'zining tub ildizlari, mahalliy an'analari hamda ishlanish uslublari va texnologiyalariga ega bo'lgan mamlakatimizdagi milliy xunarmandchilik sohalari minglab yillar davomida rivojlanib, sayqal topib kelgan, xunarmandchilik maxsulotlari va san'at asarlari dunyo miqyosida shuhrat qozongan edi. Afsuski, sovet davriga kelib milliy xunarmandchilik ravnaqiga jiddiy e'tibor berilmadi-ki, bu xaqda ishimizning maxsus bo'limida batafsil to'xtalamiz.

Endi bevosida milliy san'atning tarixiy va nazariy jihatlarini xaqida so'z yuritadigan bo'lsak, milliy amaliy san'at - badiiy jozibali, estetik sifatli, xayotiy buyumlar tayyorlash madaniyati xisoblanib, bu buyumlar nafaqat uy-ro'zg'orda, balki uylarni, me'morchilik inshootlarini, bog' va xiyobonlarni bezatishda keng qo'llaniladi. Har xil uy anjomlari - kursi va xontaxtalar, idish-tovoqlar, kiyim-

¹ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Древность и средневековье. - М.: Искусство, 1982. - С. 4-5; Искусство зодчих Узбекистана / Под. ред. Г.А. Пугаченковой. - Ташкент: Фан, 1972. - С. 6; Пугаченкова Г.А. Из истории античной культуры Узбекистана. - Ташкент: Издательство им. Гафура Гуляма, 1973. - С. 19-20 ва бошқалар.

kechaklar, gilamlar, so'zana, kashtalar, zargarlik buyumlari, o'yinchoqlar va boshqalarning hammasi xalqimizning amaliy-badiiy san'ati namunalaridir.

Binolarning ichki va tashqi bezaklarida qo'llanilgan koshinkorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, sangtaroshlik, yog'och o'ymakorligi ham shular jumlasiga kiradi.

Amaliy-badiiy san'at buyumlarining tasviriyl san'atning boshqa turlaridan farqi shundaki, ular o'ziga xos bo'lgan amaliy xususiyalarini yo'qotmasdan turib, o'zlarining badiiy obraz namunalarini o'z funktsiyalarini bajarishda namoyon qiladilar.

Amaliy-badiiy san'at nafosati uy anjomlarida, ro'zg'or buyumlarida, kiyim-kechakda ko'rinishi bilan birga, ular go'zal bezak namunalari ham bo'lishi mumkin.

Bu ikki xolda, garchi, ular o'rtasida qat'iy chegara bo'lmasa ham, har qaysisining o'ziga xos xususiyatlari bor. Amaliy xizmatdagi badiiy buyumlarining estetik sifati ularning bezagidagina emas, balki buyumlarning maqsadga muvofiqligi va badiiy ta'sirchanligidadir¹.

Amaliy badiiy san'at o'zining kelib chiqishi jihatidan eng qadimiy san'atlardan hisoblanadi. Bu san'at xunarmandchilik ishlab chiqarishi mustaqil soha sifatida ajralib chiqqanidan buyon asrlar mobaynida xalq o'rtasida badiiy san'at shaklida rivojlanib kelgan.

Amaliy badiiy san'at turlaridan biri katta binolar, monument va yodgorliklarni bezash ishlarida xalq hunarmand ustalari tomondan keng ko'lamda qo'llanib kelinadigan ganchkorlik san'ati har bir ustadan noziq did, mahorat va tajribani talab qiladi. Ganchkorlik - juda qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, me'morchilikda keng ishlatilgan. Qadimda ganchkorlikda ishlatilgan hozirda alebastrga o'xshagan ganch qurilishi material "oxaktosh" deb atalib, ushbu qurilish materialidan yasalgan ganch bezaklarning eng qadimgilari Buxorodagi Varaxsha qal'asidan arxeologlar tomonidan olib borilgan

¹ Тошхўжаев Ш.С. Ўзбекистон амалий бадий санъати. - Тошкент, 1971. - Б. 5.

qazishmalar chog'ida topilgan¹. Ganch qurimasdan unga o'yiladigan naqsh nusxasi "axta"² vastasida solinadi. Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, milliy an'naviy arxitektura bezaklari orasida geometrik shakllar hamda o'simlik tasvirlari katta o'rin egallaydi.

Ustalar tomonidan ganchkorlikda qo'llaniladigan geometrik shakl "girix"³ deb ataladi⁴. Girix O'rta Osiyo me'morchiligi bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, u bilan me'moriy obidalarining peshtoqi, gumbazlarining ko'p qismi bezatilgan. Girixda takrorlanadigan elementlar rapport deb ataladi.

Ganch o'ymakorligida zamin qori, yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, "qirma", "zamini ko'zguli o'yma", "zamini rangli o'yma", "chizma pardoz, panjarasimon o'yma, zanjir, xajmli o'yma kabi naqsh turlari mavjud. Bundan tashqari, ganch o'ymakorligi turlari "zaminli" va "zaminsiz" o'ymalarga ham bo'linadi. Eng ko'p qo'llaniladigan o'yma - yassi o'ymadir. O'ymaning chuqurligi 1-1,5 santimetr bo'lib, unga har xil pardoz turlari beriladi. O'yma naqshning zamini umumiy yuzaning 30-60 foizini tashkil etadi. Unga joyiga moslab, "chok pardoz", "pax pardoz", "lo'la pardoz" va "tabaka pardoz" beriladi. Qirma - o'yilgan joylarni rangli ganch qorishmasi bilan to'ldiriladi⁵.

Yog'ochga naqsh⁶ o'yish, mayda naqsh yoki o'ymakorlik san'ati xalqimiz o'rtasida qadim zamonlardan beri eng sevimli badiiy san'at sohasi tariqasida davom etib kelmoqda.

Yog'ochga naqsh uyuvchi naqqoshlar-o'ymakor ustalarning ajoyib an'analari avloddan-avlodga o'tib, bizning zamonamizgacha etib keldi. Hozir xayot bo'lgan kekxa o'ymakor ustalarimiz ham bu san'atni ota-bobolaridan meros qilib olganlar.

¹ Абдусаломов У. Наққошлар устаси // Санъат. - Тошкент, 1990 - № 7. - Б. 13.

² Ахта - нақш ёки бирор расми шоффоф коғозга чизиб, чизик йўллари игна билан тешиб, буюм юзига тушириш учун тайёрланган андаза. Қаранг: Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати. - Тошкент, 1992. - Б. 7.

³ Гирих - форсча "чигал тугун" деган маънони англатади. Хандасий нақш - тўрт бурчак, уч бурчак, айлана ва ёйлардан ташкил топади. Қаранг: Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати ... - Б. 12.

⁴ Морозова А.С., Аведова Н.А. Узбекистон халқ санъати. - Тошкент, 1979. - Б. 27.

⁵ Булатов С., Мухтаров А. Ганчкорлик санъати ... - Б. 8.

⁶ Нақш - арабча тасвир, гул деган маънони англатади. Нақш маълум тартибда такрорланадиган геометрик шакллар, ўсимлик, парранда, ҳайвон ва бошқаларнинг схематик тасвиридан ташкил топган безак. Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати... - Б. 26.

XIX asr oxiri - XX asr mobaynida yog'och o'ymakorligining uslublari xilma-xil bo'lgan. Bular ornamental yuza reliefi o'ymakorligining yupqa- katta xajmdagi kashtasimon turlaridir. Yupqa relefli naqshlarning turlari boy va xilma-xil bo'lishiga qaramay, ustalar ularni asosan uchta kompozitsiyali uslub guruxlarga bo'lishgan, ya'ni "bag'dodiy", "ismili" va "pag'ori". Har bir guruxning o'ziga xos bezak mavzulari va kompozitsion tuzilishi, o'ymakorlik uslublari va naqshli reliefining ta'sir kuchi ularni bir-biridan ajratib turgan. Bag'dodiy uslubidagi o'ymakorlik bir muncha sodda geometrik chiziqlardan iborat bo'lib, asosan xilma-xil turli ro'zg'or buyumlarini bezatishda qo'llanilgan. Ismiliy uslubida¹ esa o'simlik va o'simliksimon geometrik shakllar ishlatilgan. Pag'ori uslubida asosan doira, to'rtburchak, uchburchaklardan iborat geometrik shakllar qo'llanilgan.

Hozirgi zamondagi o'zbek naqqoshlari qadimgi naqqoshlikning asosiy texnikaviy usullarini saqlab kelmoqdalar. Naqsh o'yish uchun yog'ochlarning qattiq xillari tanlab olinadi. Bular archa, chinor, qayrag'och, nok, yong'oq daraxtlaridir². Naqsh silliq yog'och ustiga bosma yoki qo'l bilan chizilgan nusxaga asoslanib o'yiladi.

Nusxa chizishda pargar (tsirkul), chizg'ich va uch burchaklardan foydalaniladi. Nusxa chizib olingandan keyin asta-sekin, extiyotkorlik bilan har xil katta-kichik iskanalar yordamida naqsh o'yiladi. Yog'ochga o'yilgan naqshlarning ustki satxi tekis qolaveradi. Ammo ba'zan o'zgartirilib, qo'shimcha naqsh va gullar solinadi. Ikki qatlamli va uch qatlamli naqshlar mashxurdir. Qatlamlarining ostlarida mayda naqshlar, ustki qatlamlarida esa yirikroq naqshlar o'yiladi. Uch qatlam bilan yog'ochga o'yilgan naqsh o'ymakor ustadan katta mahorat talab qiladi va naqshning o'zi ham zo'r badiiy ko'rkka ega bo'lib, o'yilgan naqshlar bilan uning asosi o'rtasida nur va soya jilvasi paydo bo'ladi.

Naqqoshlik san'ati O'zbekistonning hamma viloyatlarida keng tarqalgan

¹ Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати... - Б. 18.

² Ганиева Х. Ёғочга ўйилган туйғулар // Андижоннома. 2001, 3 ноябрь.

bo'lib, xozirgi davrda ham Farg'ona vodiysi viloyatlarida bu san'atning ayrim mahalliy xususiyatlari saqlanib qolgan. Chunonchi, naqqoshlik-yog'ochga va ganchga gul solish san'ati O'zbekistonda qadimdan davom etib keladi. Respublikamiz xududidan milodiy birinchi asrlarga doir ajoyib manumental rasmlar, ornamental bezaklar topilgan. O'rta asrlardagi me'morlik yodgorliklarida ham ajoyib gul bezaklar bo'lganligi tadqiq etilgan¹.

O'zbekistonda yog'ochdan yasalgan ro'zg'or buyumlariga gul solib bezatilgan, me'morchilik sohasidagi gul solish bilan ro'zg'or ashyolariga gul solish o'rtasida ko'pgina umumiy jihatlar bor.

Arxitektura sohasida manzaraviy gullar solish bilan shug'ullanadigan ustalar ko'pincha uy anjomlari, sandiqlar, qutilar va boshqa ashyolarga ham gul solish bilan shug'ullanadilar.

Farg'ona vodiysi naqqoshlari ko'proq tabiat manzaralarini tasvirlaydilar. Bezaklar esa to'g'ridan-to'g'ri gullarning o'z tabiiy nomlari bilan ataladi, masalan, lolagul, bodomgul, atirgul va boshqalar.

Uylarning ichki bezaklarini bajarishda kompozitsiyaning mutanosib bo'lishiga rioya qilinadi, satxni asosiy tikka bo'laklarga taqsimlashda toq sonlarni saqlashga harakat etiladi. Odatda devor uzunasi uch qismga bo'linadi: tag qator, o'rta qator va tepa qator.

Devorning tepa qismi ko'proq bezatiladi. O'rta qismi esa mayda tokchalardan tashqari, katta lavha bilan bezatilib, bu lavhalar chiroyli xoshiyalar bilan o'raladi.

Tag qator oddiyroq bezatilib, ular to'g'ri burchakli kataklarga taqsimlanib, yoppasiga bir xil gul bilan o'raladi.

Gul solish san'ati ham xalq san'atining boshqa tarmoqlari singari qadimdan boshlangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analar asosida rivojlanib kelmoqda. Shogirdlikni tamomlab, usta bo'lib chiqadigan odamlar muayyan ko'nikmalarni va ish usulini o'rgangan bo'ladilar. Ular gul solishning ko'plab usullarini egallab oladilar. Ba'zi ustalar mana shu dastlabki o'rgangan

¹ Пугаченкова Г. А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии ... - С. 288.

hunarlari bilan chegaralanib qolaveradi. Ammo chinakam san'atkor xech qachon erishgan narsasi bilan chegaralanmaydi. Har bir ishga u ijodiy yondashadi. Bunday ustaning o'z ijodiy uslubi, mustaqil yo'li, sevgan naqshi va gullari, bo'yoq xillari, xullas o'ziga xos fazilati bo'ladi. Bunday usta har bir uy, har bir ashyoni bezatishga o'ziga xos uslub va yo'l bilan kirishadi.

Hozirgi naqqoshlar o'z san'atlarini takomillashtirib va boyitib, davr ruxiga mos yangi kompozitsion shakl va bezaklar ijod qilmoqdalar. Yangi bezaklar orasida eng ko'p qo'llaniladigani etti qirrali yulduz, paxta chanog'i, kosmik yo'ldoshlar, O'zbekistonning davlat gerbi va boshqa shunga o'xshash tasvirlardir. Shu bilan birga o'zbek milliy gul solish san'atida realistik syujetlar paydo bo'lib turibdiki, bu ham o'z navbatida uning mazmunini boyitayotir.

O'zbekistonda badiiy sopol buyumlar ishlab chiqarish ham keng miqyosda taraqqiy etgan. Sopol buyumlar ishlab chiqarish san'atida - badiiy kulolchilikda sopollarga gul solishning uch xil usuli bor. Bulardan birinchisi "chizma" yoki "xarroj" deb ataladi¹. Bunda buyumga naqsh solinadi. Keyin bo'yalib sayqal beriladi. Bu usul hozirgi vaqtda ko'proq Toshkentda qo'llaniladi. Ikkinchi usul "bosma" deb ataladi. Bunda tayyor idishga, buyumga tayyor andozalar (shtamplar) yordami bilan gul bosiladi. Bu andozaning gullari oddiy naqshlardan iborat bo'lib, doiralar, nuqtalar, yulduzchalar va shunga o'xshash oddiy shakllardan tashkil topadi. Gul solishning eng takomillashgan usuli mo'yqalam bilan amalga oshirilib, "qalami" deb ataladi. Kulolchilik san'atining durdona asarlari shu usul bilan ishlangan. Bu usul Rishtonda keng qo'llaniladi².

Rishton Farg'ona vodiysining badiiy kulolchilik markazlaridan xisoblanadi. Rishtondagi xozirgi kulolchilikka xos xususiyat - yirik badiiy bezaklarning ko'proq ishlatilishidir. "Qalami" usuli bilan ishlangan bezaklarda ko'k-moviy rang va o'ziga xos kompozitsiya ustun turadi, fonning ko'p qismiga gullar chizilmaydi.

Rishton bezaklarining kompozitsiyasi har xil laganning o'rtasi katta gul

¹ Хакимов А.А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии ... - С. 53.

² Юсупов З. Юртга меҳр мужассам // Андижоннома. 2001, 28 июнь.

tasviri bilan bezatiladi. Bu kompozitsiya juda original va tipik bo'lib, ko'p ishlatiladi. Ba'zan bu tasvir ro'zg'or buyumlari - pichoqlar, ko'zachalar va boshqalarning rasmi bilan qo'shib ishlatiladi¹.

Kompozitsiyaning ikkinchi bir turi markazlashtirilgan ravishda ishlanadi. Ya'ni laganning qoq o'rtasidagi doira shaklidagi bezak atrofi **“kuchkorak”** deb atalgan gulchambarlar bilan g'ir aylantirib olinadi.

Xozirgi vaqtda Rishton kulollarining bezaklari orasida gullar, mevalar, o'simliklarni tasvirlash katta o'rin tutadi². Bezaklarning ayrimlari ko'p nusxalarga ega. Bunga misol qilib rishtonliklar eng sevgan “Anor gul” bezagini ko'rsatish mumkin. Bu bezak goxo mevalari pishib, barglari barq urib turgan anor daraxti shaklida ham tasvirlanadi. Goho esa o'ziga maxsus badiiy shaklda tasvirlanib, anor kesilgan holda, ichidagi qip- qizil donalari va pardalarigacha ko'rinib turgan bo'ladi. “Pichoqlar” va “Ko'zachalar” deb atalgan bezaklarning ham turlari juda ko'p. Lekin negadir “Qush qanoti”, “Qalampir³”, “Tojixo'roz” deb atalgan bezaklarning xillari ko'p emas.

O'zbekistonda qadimdan a'lo sifatli va go'zal badiiy matolar ishlab chiqariladi. Bular turli-tuman ip gazlamalar, shoxi-atlaslar, beqasam va banoraslar va shularga o'xshagan ip, ipak, jun matolardan iborat.

Respublikamiz viloyatlari o'rtasida milliy ipak matolar to'qib chiqarish jihatidan Farg'ona vodiysining Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari alohida o'rindadir. Xususan, Marg'ilon, Namangan shaharlari shoxi-atlas to'qishda qadim va boy an'analarga ega bo'lib, ularda o'ziga xos usullarga ega maktab mavjud bo'lgan. Jumladan, ushbu maktablarda XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida xunarmandlar tomonidan qalami, olacha, susi, beqasam, banoras, duruya, yakruya, atlas, xon atlas kabi matolar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Milliy ipak matolar turlari hozirda 20 dan ortiq bo'lib, ularning ranglari, gullari va ishlanish texnikasi turlichadir.

¹ Хакимов А.А. Кўрсатилган асар. - С. 45.

² Абдувахобов М. Хунарманди кўп эл - бой бўлур // Андижоннома. 2001, 28 июнь.

³ Ислимий нақш бўлаги: турли кўринишда тасвирланади. Қаранг: Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати... - Б. 43.

Bu matolar to'qilmasdan oldin ularning ipak va ip tolalari bo'yaladi. Bo'yalgan iplar dastgoxga solinib, to'qilayotganda turli-tuman bezaklar vujudga keltiriladi. Bu usulda to'qilgan matolar ikki guruxga, ya'ni garnitura va atlas guruxlariga bo'linadi.

Garnitura guruxiga mansub to'qilgan matolar turkumiga shoyi va adras, dag'irga o'xshash yarim ipak va evropacha reps tipidagi matolar kiradi.

Adrasga o'xshagan matolarning asosi tabiiy ipak, arqoqi esa ip bo'lib, och rang bilan bo'yaladi. Arqoq ipining yo'g'onligi asosdagi ipakdan ancha yo'g'onroq bo'ladi. Shuning uchun ham to'qilgan matoning yuzi g'o'dirroq bo'lib chiqadi¹.

Atlas guruxidagi matolar faqat ipakdan to'qiladi va ular to'rt, sakkiz, o'n ikki tepkilik atlaslarga bo'linadi. Sakkiz va o'n ikki tepkilik atlaslar "xon atlas" deb ataladi. To'quvchi xunarmandlar hozirda 30 ga yaqin nom bilan turli turdagi xon atlas matolar to'qishni o'zlashtirganlar.

Yarim ipak matolarning avra tomoniga maxsus ishlov berilganda mato o'ziga xos jiloga ega bo'ladi. Toza ipakli matolar esa yumshoq va yaltiroq bo'lib qoladi. Atlas, adraslarga o'ynoqi jilo berish uchun tuxumning oqidan foydalaniladi. Matoning bir uchini oxorga xo'llab, ichkari quruq tomoniga qarab o'raladi. So'ngra matoni kudunglash boshlanadi, ya'ni usta kudung yordamida oxor suyuqligini matoning hamma qismiga bir tekisda surtib tarqatadi.

Milliy badiiy matolarni har xil gullar bilan bezatishning emotsional-estetik ta'siri katta. Matoni gullar bilan bezatishda Farg'onada zarrin sariq, Qo'qonda ko'k moviy rang ishlatiladi. Matoning gullariga, qalin yupqaligiga qarab qaysi erdagi ustalar to'qiganligini aytib berish mumkin.

Farg'ona vodiysida ettita rang: sariq, naparmon, ko'k, qora, zangori, pushti, gunafsha ranglar ishlatiladi. Ranglarning uyg'unligi bir rangning ikkinchisiga qo'shilishi va umuman butun fonda qisman ishtirok etishi bilan yuzaga chiqariladi.

¹ Хамидова М. Қашқадарё воҳаси хунарамандчилиги тарихи (XIX-XXаср бошлари). - Тошкент, 2009. - Б. 45.

Milliy xunarmandchilikda matolarga gul bosish jarayonida asosan qora va qizil ranglar ishlatiladi. Gul bosish jarayoni tarkibiy jixatdan ancha murakkab bo'lib, gul maxsus tayyorlangan matolarga qo'l bilan yog'och andozalar¹ (qoliplar) yordamida bosiladi. Andoza yasash uchun nok daraxtining qattiq yog'ochi ishlatiladi.

Kashtachilik, ya'ni matolarga turli-tuman gullar tikish ham amaliy- badiiy san'atning eng ko'p tarqalgan tarmog'i hisoblanadi.

O'zbekistonda so'zana²lar va kashtalar tikish ancha taraqqiy etgan bo'lib, ular odamlar yashab turgan xonalarning ichini bezatishda katta rol o'ynagan. So'zanalar va kashtalar devorlarga, tokchalar tepasiga, taxmonlarga osilgan.

Mustaqillik yillarida amaliy-badiiy san'atning bu sohasini rivojlantirish uchun tinimsiz izlanishlar olib borilib, so'zanalarda milliy mazmundagi badiiy ko'rkam tasvirlar ijod etildi. Shuningdek, an'anaviy naqshlar ham o'rni bilan bezaklarga milliy jilo berishda katta rol o'ynamokda. So'zana va kashtalar tikishda qo'l mehnati borgan sari mashinalar bilan almashtirilib, ishlab chiqarish ommaviy tus olmoqda. Xozirgi vaqtda mashinada kashta ko'proq kora fonga tikiladi. Tiqilgan gullarning ranglari bilan qora fon juda ochilib ketadi. Kashtalarning atrofiga tikiladigan bezaklarning ham rivojlanganligi xarakterlidir. Ko'pincha bu bezaklar kompozitsiyaning asosiy qismini tashkil qiladi. Kompozitsiya markazlashtirilgan shaklda ishlanadi. Farg'ona vodiysida mashinada tiqilgan kashtalar uchun o'ziga xos xususiyat - fonga juda zich qilib gul tikishdan, ko'prok sariq rangli ipak ishlatilib, oltinga taqlid qilib tiqilgan gullar shoxchalab turib, birdan shoxlar yo'qolib, o'ziga xos ravishda o'zgartirilgan bezakka aylanib ketadi.

Milliy zardo'zlikka xos tayyorlash usullari ham turlichadir.

Zardo'zlikda asosan zar yoki kumush iplardan foydalaniladi va tiqilgan buyumga sayqal beriladi. Zardo'zlikka xos usullardan biri "zamindo'zi" deb

¹ Андаза - (форс-тожикча - ўлчов, сон, хажм, микдорни англатади) шакл кўчириш учун қўлланилинадиган махсус ўлчагич. Қўқон хунармандлари уни ўлчак ва искат деб ҳам аташади. Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати... - Б. 5-6.

² Сўзана - сидирға матога гул тикиб тайёрланган, деворга осиладиган безак. Булатов С. Кўрсатилган асар. - Б. 33.

atalib, bunda oldindan chizilgan gullar ustiga zar tikiladi.

Zardo'zlik san'atidagi bezaklarning boyligi to'la ravishda uning ikkinchi xili - "guldo'zi"¹likda namoyon bo'ladi². Qalin qog'ozdan yoki kartondan yasalgan gul (bezaklar) matoning ustiga qo'yiladi va uning usti zar iplar bilan qoplanadi. Bezaklar maxsus rassomlar (tarxkashlar) tomonidan yasaladi. Tarxkashlarning o'zlari ham odatda zar tikish texnikasiga usta bo'ladilar, shuning uchun ular zardo'zlik san'ati buyumlarining asosiy ijodkorlari xisoblanadilar.

Zardo'zlikda har xil rangdagi baxmallar va ipak matolar ishlatiladi. Bezaklar odatda o'simliklar olamiga xosdir. Bezaklarni umumlashtirishga va sodda geometrik shakllarga keltirishga katta e'tibor beriladi. Bezaklarning ayrim bo'laklari qat'iy ravishda simmetrik bo'lib, ko'pincha tikka mexvor atrofiga ko'riladi. Xozirgi vaqtda zardo'zlik bezaklari yangi manzaralar bilan boyitilgan. Masalan, etti qirrali yulduz, xilol oy tasviri va shunga o'xshash manzaralar.

Zardo'zi buyumlarning eng ko'p tarqalgan ommaviy nusxalari ayollarning nimchalari, kovushlari va zar do'ppilardir. Zar do'ppilarning gullari turlicha bo'lib, har xil uslubda tiqiladi. Eng oddiy bezak xisoblangan "chor gul" koppozitsiyasidan eng murakkab bezak - "tovus gul" gacha mahorat bilan tikiladi. Mayda bezakchilik buyumlari orasida divan yostiqchalari katta o'rin tutadi. Kichik-kichik zardo'zlik lavhalari ham uchrab turadi. Bu lavhalar chiroyli gullar bilan bezatilgan bo'ladi. Nafis shoxchalar yoki guldastalar atrofiga xoshiya yasaladi. Zar va kumush iplar yarqirab, ajoyib ko'rkam manzarani tashkil etadi.

Xalq badiiy amaliy san'ati turlaridan yana biri do'ppichilik bo'lib, Farg'ona vodiysida asosan uch xil Chust, Andijon, Marg'ilon do'ppilari milliy hunarmand ustalar tomonidan tayyorlanadi. Tayyorlangan do'ppilar to'rt burchakli, "qalampir nusxada", to'rt gulli bo'lib, Marg'ilon, Qo'qon do'ppilarining guli uzunchoq, ingichkaroq, Andijon va Chust do'ppilarining

¹ Gulдузи - зардўзликда андоза асосида нақш (кашта) тикиш усули. Қаранг: Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати... - Б. 14.

²Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана... - С. 21.

gullari kalta va yo'g'onroq ekanligi bilan farqlanadi¹. Do'ppilar “ilma suv”, “achamak”, “yo'rmak”, “mishik keti”, “setora” kabi gul nusxasi shakllari bilan bezaladi. Bu gullarni tikishda yo'g'on va ingichka ipak iplardan foydalaniladi. Azaldan Chust do'ppilari kiborlar uchun maxsus, Andijon do'ppilari esa xalq uchun ommaviy tarzda tayyorlangan².

Do'ppining asosiy ashyosi las bo'lib, qora fonga chizilgan gulga oq ipakdan tikib chiqiladi, so'ng avra bilan astari birga tiqilgan choklar pilgaklanadi. Keyingi bosqichda yuza va ostki qismlar qo'shilib, elimlanib, keyin qotirishga qo'yiladi. Shu tariqa milliy bosh kiyim va badiiy-amaliy san'at asari hisoblangan do'ppi tayyorlanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, xalqimiz hunarmandlari amaliy-badiiy san'at ustalari asrlar davomida rivojlanib, sayqal topib kelayotgan milliy hunarmandchilik an'alarini hozirda ham yangi g'oya, mazmun va shakllar bilan boyitib, bunyodkor xalqimizning didi va talabiga mos keladigan yuksak, nafis san'at asarlari darajasidagi ijod namunalarini yaratmoqdalar.

¹ Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана... - С. 23.

² Жалилов С. Андижон дўпписи // Андижоннома. 1992, 7 июнь.

II – bob. Xonliklar davrida milliy hunarmandchilikning ahvoli

O'rta Osiyodagi hunarlar orasida eng qadimiylaridan biri bu zargarlikdir. Zargarlar, asosan oltin, kumush va qimmatbaho rangli toshlardan, xilma-xil shishalardan turli narsalar tayyorlashardi. Masalan, xotin-qizlar uchun tumor, tillaqosh va bargaklar yasashardi. Yana ko'krakka taqish uchun tumor savat, zebigule, qo'ltiq tumor, bilaguzuk, xalqa, isirg'a singari qimmatbaho narsalar yasalar edi. Shuningdek, zargarlar qilich va pichoqlarning dastalariga turli qimmatli ma'danlardan gul o'yish ishlarini moxirona bajarishardi. Har xil asl toshlardan va boshqa qimmatbaho narsalardan sadaf tugmalar, uzuk, bilaguzuk va tilla-qoshlarga turli ma'danlar qadash, ayniqsa ziynatli munchoqlar san'ati ancha rivojlangan edi. Zargarlar otlarni bezatish uchun xilma-xil narsalar yasalar edilar. Masalan, ular egarga kumushdan turli gul kesardilar, uzangiga rang-barang naqshlar o'yardilar¹.

O'rta Osiyoda kulolchilik keng yoyilgan edi. Bu sohada tovoq, piyola va boshqa idishlar ko'proq ishlab chiqarilardi. Ko'k, sariq, qizil, qora, zangori, oq va boshqa ranglarga o'rik elimi, un, qum, temir kukunini aralashtirib, idishlar rang-barang qilib bo'yalar edi. Idishlarning chiroyli ko'rinishi uchun qizil tuproq xam ishlatilardi. Samarqandda oq tuproqdan ham sopol idishlar yasashgan. Kulol ustalar sopol idishlarini ko'proq o'simliklar rasmi, mevali daraxt barglari, turli gulnusxalari bilan bezatishardi. Bular esa bargibet, mehrob, gulibaxr deb nomlanardi. Qarshi, Samarqand, Toshkent, Xo'jand, Rishton va boshqa joylardagi kulollar mohirona ishlar edilar. Masalan, Rishtonda idishlarga gul solish san'ati, ayniqsa rivojlangan edi. Bu erda kulollar juda ko'p bo'lganligi sababli ular o'rtasida idishlarning xillari aniq bo'lingan. Har bir usta faqat muayyan buyumni yasardi. Bordi-yu boshqa bir kulol shunday buyum yasaydigan bo'lsa, uning tuzilishi va rangi butunlay o'zgacha bo'lishi shart edi. Rishton ishlab chiqargan sopol idishlari, ayniqsa charx tovoq, nimcharx, qalbaki obdasta, sirlangan obdastda, qo'ra va turli gul o'yib ishlangan chiroyli kosa,

¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2012. 373.

piyola va yog' idishlari bilan butun Turkistonga tanilgan edi¹. Kulollar ro'zg'or uchun kerakli xar xil kosa, ko'za, xum, xurma, xamir tog'ora, kir tog'ora shokosa, shamdon, qora chiroq, tandir yasar va g'isht quyardilar, ayniqsa sun'iy sug'orish inshootlari uchun turli quvurlar, suv chiqaruvchi chig'irlarga uqachalar tayyorlar edilar. Juvozkashlik ham o'lkadagi hunarlar orasida muhim o'rinni egallagan. Juvozlarda asosan zig'ir moy va kunjut yog'i chiqarilardi. Qovun va tarvuz urug'lari aralashmasidan yog' olinardi. Yana ko'knor urug'idan, yong'oqdan yog' chiqarilardi. XIX asr o'rtalarida Toshkent shahrining o'zidagina 500 juvoz bor edi. Butun o'lkada esa bir necha o'n ming juvozxona bo'lgan. Shuningdek, sovun va sham ishlab chiqarish keng rivojlangan edi².

Qadimiy hunarlardan biri bo'lgan duradgorlik ancha etakchi rol o'ynardi. Duradgorlar qoshiq, cho'mich, qozoi qopqoq, xamir taxtasi, o'qlog'i, korson, sandal, beshik, panshaxa, kurak, charx, chig'iriy, to'quvchilik do'kon dastgohi, omoch, bo'yinturuq, mola va boshqa asboblarni tayyorlar edilar. Duradgorlarning ikkinchi guruhi esa uy, madrasa va machitlar uchun eshik, darvoza va tuynuklar, kitob, kitob tagiga qo'yiladigan lavha kursi va shunga o'xshash buyumlarni yasardilar. Ular eshik, darvoza va boshqa narsalarga juda ustalik bilan o'yma gullar ishlar edilar³.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qarshi, Qo'qon, Andijon, Namangan singari katta shaharlarda o'nlab va yuzlab aravaszlik ustaxonalari bor edi. Masalan, Toshkent shahridagi aravaszlik ustaxonalarida 200 kishi ishlardi. Turkiston shahridan tortib Buxorogacha, Qo'qondan tortib G'uljagacha bo'lgan joylardagi ustalar yasagan aravalar bir-biridan kam farq qilar edi. Yana, bo'yra, chiy va savat to'qish kasblari bo'lgan. Ko'nchilik hunari ham keng tarqalgan edi.

Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklarida hunarmandchilik sanoatida poyabzal ishlab chiqarish katta o'rin tutardi. Bu hunar etikdo'zlik, kavushdo'zlik, mahsido'zlik, mukitdo'zlik deb nomlanar edi.

¹ Қосимов Ў. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. – Тошкент – Наманган: 1994. – Б. 125.

² Қўрсатилган асар. – Б. 126.

³ Соатов С.С. Ўзбекистон ССР тарихидан ўқув қўлланмаси. – Б. 40.

O'rta Osiyo xalqlari hayotida to'quvchilik muhim ahamiyatga ega edi. Bu hunar egalari paxta, ipak va jundan turli narsalar to'qishgan. Birinchi navbatda ip yigirishdan avval paxtani chigitdan ajratish zarur bo'lar edi. Bu ishni faqat xotin-qizlar chig'iriq bilan bajarar edilar. Ip charxda yigirilib, kalava qilinardi. Shundan so'ng ipni to'qish do'konlariga tayyorlash pallasi boshlanib, ip bir qancha kishilar qo'lidan o'tardi. To'quvchilik do'konlari, asosan shahar mahallalarida va qishloqlarda bo'lardi. Shuningdek, ayrim ustalar o'z uylarida ishlar edilar. Chunonchi, bo'z to'qish keng avj olgan edi. Shahrisabzda to'qilgan bo'zlar alohida o'rinni ishg'ol qilardi. Buxoro bo'zlarining ko'proq qismi ko'kimtir bo'lib, asosan ko'chmanchi aholi o'rtasida sotilardi. Bo'zdan tashqari, turli rangda bo'yalgan iplardan olacha, qalami, bayroq olacha to'qilgan. Qalami, olacha va shunga o'xshashlarni to'qish ishlari Namangan va Andijon to'qimachilari o'rtasida kuchaya borgan, bu matolar turli bo'yoqlari va yaxshi sifati bilan ajralib turardi. Olacha, qalami, bo'z, chit, doka kabilarning hammasi faqat charxlar bilan tayyorlangan iplardan to'qilardi¹.

1841-42 yillarda Buxoroga kelgan rus diplomatik missiyasining boshlig'i kon injeneri mayor K. Butenev bu erda chit ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. Asosan, ikki xil, ya'ni chiti sarigaz va chiti chatti to'qilgan. Bu xil chitlar avval oq surp kabi tayyorlanib, so'ng unga har xil gul bosilgan. Buxoro chitlari qo'shni mamlakatlarga, jumladan, Rossiyaga ham chiqarilardi. Ayniqsa, Ural, Orenburg tomonlarga yuborilgan sarigaz chiti u joylarda baxti nomi bilan mashhur bo'lgan. Ipak mollar tayyorlashga ham katta e'tibor berilgan. Ho'jand, Andijon, Namangan va boshqa joylarda ipak kiyimliklar to'qish ishlari avj olgan. Bu sohada Marg'ilon shahri shuhrat qozongan edi. Marg'ilonda to'qilgan turli shoyi kiyimliklar, xususan atlaslar O'rta Osiyogagina emas, butun Sharqqa ham tanilgan edi. Xullas, XIX asrning 40- yillarida o'lkada atlas, shoyi, dorayi, oq shoyi, jujuncha, nimshoyilardan adras, beqasam, banoras, gul bosilgan choyshablar va shunga o'xshash ko'p narsalar to'qilardi.

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. I том. Иккинчи китоб. – Б. 54.

Mamlakatning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning rivoji bir xil bo'lgan bo'lsada, ishlab chiqarish o'zining ayrim xususiyatlari, ya'ni mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari¹ keng rivojlangan bo'lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsulotlari bilan dong taratgan. Jumladan, Qo'qon shahri zargarlik va qog'oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan pichoqchilik, Marg'ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o'zining tikuvchilik, to'quvchilik, cho'yan, temir-mis mahsulotlari bilan shuhrat topgan². Xonlik hunarmandchiligi haqida A.P. Xoroshxin bergan ma'lumotlarga ko'ra, uning e'tiborga loyiq sohasi Namangan, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida atlas, shoyi, adras va beqasam matolarining ishlab chiqarilganligidir.

Ustalar ko'pchilik shaharlarda, ayniqsa Qo'qonda juda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarganlar. Qo'qonda tajribali ustalar ko'p bo'lib, ular o'z mahsulotlarini san'at darajasiga ko'targan holda doimiy buyurtmachi va mijozlarga ega bo'lganlar. Bu esa usta-hunarmandlarning doimiy ish bilan ta'minlanib turganlaridan dalolat beradi.

Ayniqsa, Qo'qon hunarmandlari ishlab chiqargan gazlama va metall buyumlar ancha sifatli bilan ajralib turgan. Qo'qonda temirchilik mahsulotlariga talab katta bo'lgan. Chunki ular jamiyat xo'jalik hayotida alohida o'rin tutgan va bu mahsulotlardan qishloq xo'jaligi hamda uy-ro'zg'orda keng foydalanilgan.

Xonliklarda jundan turli kiyim va buyumlar tayyorlash ishlari ham davom ettirilgan. Bu ish bilan asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi orasidan chiqqan ustalar shug'ullanishardi. Jundan qop, hurjun, rang-barang sholchalar to'qilardi. Chiroyli sholchalar ichki bozordagina emas, hatto tashqi bozorlarda ham kishilarning diqqatini o'ziga jalb qilardi. Echki, qo'y va tuya junlarini

¹ Қўқон хонлари архивида улар номма-ном санаб ўтилган. Қаранг: Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. — Москва, 1968.

² Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши... — Б. 83-85.

aralashtirib, turli xildagi arqonlar to'qilar, turli rangda gul bosilib, kigizlar bosilar edi. Echki tivitidan har xil kigizchalar tayyorlanardi. Shuningdeq, jun kiyimlar, jumladan, chakmon tikilardi.

Gilamdo'z ustalar asrlar davomida ko'p tajribalarni to'plashga muyassar bo'lganlar. Nozik did bilan to'qilgan ajoyib gilamlarning qizil, ko'k va boshqa ranglardagi turli-tuman gullari O'rta Osiyo xalqlariping zo'r san'ati va nafosatidan dalolat beradi. Kulollar kabi, gilamdo'zlar ham, gilamlarga ko'pincha turli o'simliklar, ayniqsa xurmo daraxti va xilma-xil gullar rasmini solar edilar. Buxoro xonligida Kerki, Kelif va Amudaryoning chap sohilidagi bir qancha joylar gilamdo'zlikning muhim markazlaridan hisoblanardi. Bu erda to'qilgan gilamlar O'rta Osiyo bozorlarida Pekin gilamlaridan keyin asosiy o'rinni egallar edi. Xiva xonligida, Buxoroda, Samarqand va Xo'jandda, Andijon bekligiga qarashli Oyim qishlog'ida olma guli nomli gilamlar to'qilgan¹. Oqmachit, Chang'irtosh, Darda, Lukqazan va boshqa joylardagi ko'chmanchi xalqlar orasida ham gilam to'qilar edi. Machit va katta ma'rakalar uchun tayyorlangan gilamlarning gullari kam bo'lar edi, cho'val nomli gilamlar uy-ro'zg'orda ishlatilardi. To'y gilami degan gilam san'atkorlik bilan to'qilib, unga eng yaxshi ranglarda gul bosilar edi. To'qish uchun kerakli narsalarning hammasini hunarmandlar tayyorlar edilar.

O'rta Osiyodagi o'zbek va tojik ayollari orasida taraqqiy etgan eng muhim hunarlardan biri palakchilik edi. Ipakdan yoki ipdan to'qilgan har xil kattalikdagi choyshablarga turli rangdagi ip yoki ipak bilan turli-tuman o'simlik gullari, hayvon va qushlarning suratlari tikilardi. Hatto she'r parchalari ham har xil rangdagi ip yoki ipak bilan palaklarga yozilar edi. Bunday go'zal palak va choyshablar hammaning diqqatini o'ziga jalb etardi.

Qog'oz ishlab chiqarish o'lkadagi hunarlarning eng qadimgilaridan hisoblangan. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon, Buxoro va Samarqandda ishlab chiqarilgan qog'ozlar, ayniqsa ipakdan ishlangan qog'oz butun Sharqqa nom chiqargan edi. 1863 yilda Turkistonning ko'p shaharlarida bo'lgan venger

¹ Қосимов Ў. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. – Б. 127.

sharqshunosi X. Vamberi Samarqand va Buxoro qog'ozlari o'zining silliqliigi va sifati jihatidan chet mamlakatlarda shuhrat topganligini qayd etadi¹.

Qo'qon xonligiga qarashli Charq qishlog'idagi qog'oz ishxonasi, asosan suv kuchidan foydalanishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun ham buni «qog'oz objuvozi» deb atashardi. Bu ishxonada asosan eski latta va paxtalar objuvoz orqali tozalanib, turli qog'ozlar tayyorlanar edi².

Muqovasozlik hunari ham uzoq tarixga egadir. Samarqand, Buxoro, Urganch, Xiva, Andijon, Namangan, Toshkent, Xo'jand kabi shaharlar muqovasozlikning asosiy markazlari bo'lgan. Muqova charm va qalin qog'ozdai qilingan.

O'rta Osiyoda bo'yoq ranglari qadimgi zamonlardan buyon, asosan turli ma'dan va o'simliklardan tayyorlanib, ularni aralashtirish yo'li bilan hosil qilinardi. Masalan, Buxoroda bizgunt degan qora bo'yoq va separak yoki isparak degan to'q sariq bo'yoq ikki xil o'simlik aralashmasidan tayyorlanardi. Turkiston erlarida bo'yoqli o'simlik ro'yan, asosan Farg'ona vodiysida ko'p bo'lib, yovvoyi holda o'sardi. Ip va ipaklar ro'yan bo'yoqlariga bo'yalar edi. Yana Toshkent atroflarida va boshqa joylarda o'sadigan sarg'imtil isparakdan eng yaxshi sariq bo'yoq olinardi. Bu rang ip va ipaklarni bo'yashga ishlatilgan. Tut po'kaklaridan ham sariq bo'yoq tayyorlangan. Bog'larda o'sadigan tuxmak daraxti gullaridan ko'k bo'yoq olinardi. Gulxayri gullaridan qora bo'yoq tayyorlanardi. Ip, ipak va junlarni qora rangga bo'yash ishlarida anor po'chog'i va po'stidan keng foydalanilardi edi³. Qizil – baqam va sandal bo'yoqlar esa Rossiyadan keltirilar edi. Shu bo'yoq bilan ip, ipak va junlar qizil qilib bo'yalardi. Nil o'simligi, asosan Hindistondan keltirilib, undan ko'k va pushti ranglar tayyorlanardi. Ayrim bo'yoqlar esa Afg'oniston, Eron, Hindiston va Rossiyadan keltirilar edi.

¹ Ўзбекистон халқлари тарихи. 2-жилд. – Т.: “Фан”, 1993. – Б. 132.

² Қосимов Ў. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. – Б. 128.

³ Кўрсатилган асар. – Б. 129.

III – bob. Mustaqillik davrida milliy xunarmandchilik tarixiga yangicha yondashuv

XX asr oxirida erishilgan milliy mustaqillik tufayli jiddiy tarixiy o'zgarishlar ro'y berib, o'zbek xalqi tarixi va madaniyatini xolisona yoritish imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Chunonchi, O'zbekiston tarixi va madaniyatining ko'pgina masalalari o'zining yangi, ilmiy jixatdan xaqqoniy va har tomonlama echimini topa boshladi. Xozirgi kunda tarixchilar oldida sovet davrining so'nggi yillaridagi keskin ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni mustaqillik davri bilan qiyosiy taqqoslagan xolda xaqqoniy o'rganish vazifasi turibdi. Zero, Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, sotsial iqtisodiy muammolarni yanada chuqurroq o'rganishga va ularni hal etish bo'yicha zarur choralarni ko'rishga butun diqqat-e'tiborni qaratish kerak¹.

Bizga ma'lumki, sovet davlatida 20-yillar voqealariga doir xujjatlarning o'ta maxfiy saqlanib, sir tutilishi, atayin ilmiy iste'molga kiritilmagani va tadqiqotchilarga ulardan foydalanish man etilganligi, tsenzura, g'oyaviy tazyiq, siyosiy taqiqlar tufayli yuzaga kelgan bunday ahvol mustaqillikning dastlabki yillaridayoq barham topa boshladi².

Binobarin, biz tadqiqot ob'ekti sifatida tanlagan muammoni milliy mafkura, milliy g'oya ruxida o'rganishda, ilmiy izlanish yo'limizni to'g'ri belgilab olishda, mustabid sovet to'zumiga xolisona baho berishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xo'zuridagi Davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi qoshidagi O'zbekistonning yangi tarixi markazida tayyorlangan, shuningdek, O'zR FA tarix institutida yaratilgan fundamental asarlar alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, bu yillarda tadqiqotchilarning milliy xunarmandchilik va xunarmandlar tayyorlash masalasini o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada faollashdi. Bu fikrni mustaqillik yillarida nashr qilingan Sh.G'oyibnazarov,

¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз - Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010. - Б. 24.

² Зияева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. - Тошкент: Г.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. - Б. 148.

I.Jabborov, D.Yusupov, L.Kadzaeva, M.Hamidova asarlari va boshqalarning ilmiy maqolalari misolida izohlash mumkin. Masalan, Sh.G'oyibnazarov tadqiqotlarida XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda sovet xokimiyati tomonidan zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tub mohiyati, shuningdek, avvalda erkin faoliyat olib borgan milliy xunarmand-ustalarning zo'rlik bilan artellarga birlashtirilishi va to'laligicha davlat tasarrufiga olinishi jarayonlari, O'zbekistonda yangi iqtisodiy siyosat amalga oshirilishining to'la tafsilotlari xaqida fikr yuritgan bo'lsa, I.Jabborov esa o'z asarida o'zbek xalqining milliy xunarmandchilik sohasi tarixi, uning ishlab chiqaruvchi faoliyati va milliy xunarmandchilikning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlarini turli xil tarixiy, etnografik ma'lumot va manbalar asosida ko'rsatishga harakat qilgan.

San'atshunos D.Yusupov o'zining asarida Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi yog'och o'ymakorligi sohasi tarixi va bugungi kuni xususida fikr yuritib, asarda Andijonlik xalq ustasi Yo'lbars O'taganovning xayoti va faoliyati, usta asos solgan yog'och o'ymakorligi maktabi, vodiy yog'och o'ymakorlik san'atining o'ziga xos jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

L.X.Kadzaeva o'zining asarida Farg'ona vodiysidagi Rishton kulolchilik markazida faoliyat olib borgan maktab asoschilari, maktabning o'ziga xos xususiyatlari, kulolchilik buyumlarining tayyorlanish jarayoni, rang berishdagi o'ziga xoslik, usta-hunarmandlarning ish usullari va xorijiy davlatlardagi xunarmand va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi xususida qiziqarli ma'lumotlar va rangli rasmlarni keltirish bilan tahlil qilib xulosalar bergan.

M.Hamidovanning asari esa XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Qashqadaryo viloyatida o'zbek milliy xunarmandchiligining tarixiy taraqqiyotini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda milliy xunarmandchilikning temirchilik, kulolchilik, kashtachilik va zardo'zlik san'ati, ularning xududiy xususiyatlari xaqida so'z yuritiladi.

Xususan, mustaqillik yillarida bevosita mavzuga yaqin bo'lgan Farg'ona vodiysi xunarmandchiligi tarixi va taraqqiyotining ayrim jihatlari o'rganishga

bag'ishlab N.Tolipova, X.Usmonov, N.Shodiev, M.Abdurahmonova, X.Rafiqova, M.Ortiqovalar tomonidan risolalar yozilib, ularda Farg'ona vodiysi amaliy san'at maktablari, Marg'ilon xunarmandlari, Shaxrixon shahridagi xunarmandlar, Qo'qon shahrida faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatayotgan xunarmandlarning mehnat faoliyati, yaratgan maktablari xususida turli qimmatli ma'lumotlar bayon etilib, mustaqillik yillarida vodiy viloyatlari, shaharlarida xunarmandchilik, milliy an'anaviy san'atni tiklash borasida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar qisman yoritilib, sharhlab beriladi¹.

N.Tolipovanning asarida qo'qonlik yog'och o'ymakor ustasi, O'zbekiston Qahramoni Abdug'ani Abdullaevning hayoti va faoliyatini yoritib bergan. Asarda soha tarixi, uning taraqqiyotidagi o'ziga xos jihatlar, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng milliy xunarmandchilik sohasini qayta tiklash va yanada rivojlantirish borasida xukumat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar turli tarixiy va etnografik ma'lumotlar va manbalar asosida tahlil qilinib, unda soha rivoji uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan fikr-muloxazalar bayon etilgan.

X.Usmonov, N.Shodiev, M.Abdurahmonovalarning risolasida esa Marg'ilon shahrida mustaqillik yillarida milliy xunarmandlarning xududiy bo'limining tashkil topishi, uyushmaning maqsadi va vazifalari, xunarmandchilik-kosibchilik ishlarni muvofiqlashtirish, xunarmandlarning xaq-xuquqlarini ximoya qilish masalalari, ularga moddiy jihatdan yordam berish, shahar tasarrufidagi xunarmandlarni 25 xil yo'nalishda olib borayotgan faoliyatlari, "Hunarmand" uyushmasi va shahar, viloyat xokimliklari tomonidan uyushtirilayotgan tadbirlar, shaharda xunarmandchilik maktabining tashkil etilishi, maktabdagi ustoz-shogird masalalari bayon qilingan bo'lib, risola badiiy-publistika yo'nalishida yozilgan.

M.Ortiqovanning qadimdan xunarmand va savdogarlar shahri xisoblangan Shaxrixon shahri xunarmandlarini o'rganishga bag'ishlangan asarida yoshlarni

¹Толипова Н. Уста Абдуғани Абдуллаев. - Тошкент: Адабиёт санъат, 2002. - 112 б.; Усмонов Х., Шодиев Н., Абдурахмонова М. Марғилон хунармандлари. - Фарғона, 2000; Рафиқова Х. Ферганская школа росписи. Ташкент, 2007; Ортиқова М. Хунармандлар шаҳри. - Тошкент, 2006.

kasb-xunarga yo'naltirishda g'arb mamlakatlari tajribasiga ko'proq e'tibor bermaslik natijasida yuzaga keladigan muammolar, ularning tarixi, bu ishlarni tashkil etishdagi sharqona usullar, xalqimizning qadimiy boy an'alarini qayta tiklash takomillashtirish, rivojlantirish masalalari xususida mulohazalar bayon etilgan bo'lib, asarda shahar xunarmandlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan¹.

Tanlangan tadqiqot mavzuimiz tarixini yanada keng va atroflicha ilmiy tahlil qilishimizda, xususan, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asrning dastlabki o'n yilliklarida Turkiston xunarmandchiligi va xunarmandlarning ijtimoiy ahvoli xaqida ilmiy tasavvurimizni boyishida B.Farmonova, N.Musaev, A.To'xtaev, N.A.Buranova ilmiy tadqiqotlari muxim ahamiyatga ega bo'ldi. Fikrimizcha, zikr etilgan tadqiqotlar orasida A.To'xtaevning dissertatsiyasi milliy xunarmandchilik sohasi tarixining 1917-1941 yillardagi umumiy xolati butun respublika miqyosida tahlil qilinib o'rganishga bag'ishlanganligi bilan biz uchun alohida ilmiy-usubiy ahamiyatga ega. Zero, tadqiqotchi o'z dissertatsiyasida sovet xokimiyatining dastlabki yillarida milliy xunarmandchilik sohasida amalga oshirilgan salbiy o'zgarishlarni respublika miqyosida tarixiy izchillik bilan tahlil qilib bergan. Lekin tadqiqotning xronologik davri faqat 1917-1941 yillarni va milliy xunarmandchilik sohasini respublika miqyosida tadqiq etishga bag'ishlanganligi uchun ham unda XX asrning ikkinchi yarmidagi milliy xunarmandchilik sohasida yuz bergan tarixiy voqealar, sovet xukumatining sohada amalga oshirgan chora-tadbirlarining salbiy oqibatlari o'z aksni topmagan va sovet davridagi soha tarixi mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tub ijobiy o'zgarishlar asosida Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida qiyosiy tahlil qilinmagan.

Mustaqillik yillarida milliy xunarmandchilik sohasi tarixining tarixchi va san'atshunos olimlar tomonidan o'zlarining fan yo'nalishlari nuqtai nazaridan tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etishlari borasida yangi davr boshlandi. Zero, respublika xukumatining milliy xunarmandchilik sohasini taraqqiy ettirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlari ham bu ilmiy izlanishlar uchun muhim

¹ Ортиқова М. Хунарамандлар шахри. - Тошкент, 2006.

omil bo'ldi. Natijada, mustaqillik yillarida ularning sa'y-harakatlari natijasi ularoq respublikada nashr etiladigan davriy jurnallarda milliy hunarmandchilikning turli sohaları tarixini tadqiq etishga hamda ushbu sohaning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy san'atning turli jihatlarini o'zida mujassam etgan, jumladan, milliy xunarmandchilikning unutilgan sohalarini qayta tiklash uchun turtki bo'la olgan, o'zida nazariy va amaliy jihatdan qimmatli ma'lumotlarni mujassam etgan bir qator ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar yozilib e'lon qilindi¹ hamda ilmiy adabiyotlar tayyorlanib, nashr ettirildi.

San'atshunoslarning tadqiqotlari fanning asosiy mavzusi bo'lgan san'at nazariyasining mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan amalga oshirilganligi bois o'ziga xos jihatlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham yuqorida biz ta'kidlab o'tgan maqolalarda tadqiq etilgan milliy hunarmandchilik sohasiga san'atshunoslik nuqtai nazaridan yondashilib, asosiy e'tibor san'atning qirralari, turlari va san'at darajasida yaratilgan xunarmandchilik asarlarining yaratilish usullariga qaratiladi.

Badiiy amaliy san'at sirasiga kiruvchi sohalarini san'atshunoslik yo'nalishida tadqiq etish borasida N.X.Miraxmedov, S.Ergashev asarida² miliy yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanish tarixi, sohaning o'ziga xos jixatlari, usullari bayon etilgan. A.S.Urolov asarida esa respublikadagi yog'och o'ymakorligi san'atining tarixi, an'analari, maktablari xususida fikr yuritilib, bu maktablarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini yoritilishi barobarida Farg'ona vodiysi yog'och o'ymakorligi maktabi tarixi, jumladan, ustoz-shogird masalalari umumlashgan xolda ilmiy tahlil qilingan. P.Sh.Zoxidov³ o'z asarida milliy me'morchilik sohasining shakllanish tarixi, uning yo'nalishlari xususida va

¹Алиева С. Риштоннинг мовий сополи... - Б. 34-35; Богословская И., Левтеева Л. Нақшин дўппилар сеҳри // Санъат. - Тошкент, 1999. - № 1. - Б. 34-37; Рахматулллаева Д. Санъат илмининг гулшани // Санъат. - Тошкент, 1999. - № 1. - Б. 6-7; Алиева С. Кулол Акбар Раҳимов... - Б. 38-39; Оқилова К. Марғилоннинг замонавий газламалари // Санъат. - Тошкент, 1999. - № 2. - Б. 36; Хакимов А. Ўзбекистон бадий кулолчилиги мактаблари ... - С. 76-79; Низомов А., Низомова М. Гилам жилоси ... - Б. 66-67; Гул Э. Ўзбекистон бадий тўқимачилигида ранглар жилоси... - Б. 22-25; Эсонов З., Хайдаров Р. Фарғона водийси анъанавий хунармандчилиги тарихидан ... - Б. 48-50. Левтаева Л. Шакл ва дизайн устаси ... - Б. 26-28; Эсонова О. Еттинчи авлод устаси ... - Б. 37-38; Юсупов Д. Андижон амалий ва тасвирий санъатида миллий кадриятлар ... - Б. 35.

² Мирахмедов Н.Х., Эргашев С. Ёғоч ўймакорлиги. - Тошкент: Укитувчи, 1995.

³ Зоҳидов П.Ш. Меъморлик олами ... - Б. 113.

xususan Farg'ona vodiysi me'morchilik maktabining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilgan. S.S.Bulatov asarlarida¹ ham O'zbekistonda milliy an'anaviy san'atning, jumladan, amaliy bezak san'atining sovet xokimiyati yillarida tang xolatga tushib qolishi va mustaqillik yillarida qayta tiklanishi borasida amalga oshirilgan chora tadbirlar xususida fikr yuritiladi.

N.X.Miraxmedov, S.Ergashev asarida yog'och o'ymakorligining O'zbekiston vohalaridagi o'ziga xos jihatleri, o'ymakorlik ashyolarining asosiy bosqichlari, texnikasi, tayyorlanish jarayonlari tahlil qilib berilgan bo'lib, asarda Farg'ona vodiysi yog'och o'ymakorligi maktabi, usullari umumiy xolda bayon etilgan.

San'atshunoslik yo'nalishida yozilgan asarlar turkumiga kiruvchi P.Sh.Zoxidovning qalamiga mansub asarda O'zbekistonda me'morchilik tarixi, jumladan, yog'och o'ymakorlik san'ati tahlil etilib, Xorazm, Buxoro, Samarkand, Toshkent me'morchilik maktablari, yog'och o'ymakorligining o'ziga xos jihatleri umumlashgan xolda yoritib berilgan. Asarda asosiy e'tibor zikr etilgan xududlardagi badiiy-amaliy san'at sohalarini o'rganishga qaratilganligi bois Farg'ona vodiysi yog'och o'ymakorligi san'atining umumiy jihatleri qisman yoritib o'tilgan xolos.

Ganchkorlik amaliy san'ati sohasining nazariy jihatleri, o'ziga xos tomonlari, ish jarayoni, texnikasi, ishlatiladigan materiallarini ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan S.S.Bulatov asarida ham ganchkorlik tarixi va hozirgi davrdagi xolati umumiy tarzda qisman bayon qilib o'tilgan.

Milliy xunarmandchilikning do'ppido'zlik sohasi tarixi, taraqqiyoti, do'ppi tayyorlash jarayoni va texnikasi, do'ppi turlari xaqidagi maqola I.Bogoslovskaya va L.Levteevalar qalamiga mansub bo'lib, maqolada yana ko'plab soha tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan². Jumladan, mualliflar o'zbek do'ppilarini oltita turga ajratib, ularni izohlab berganlar.

Mustaqillik yillarida milliy xunarmandchilikning rivojlanishi, uning

¹ Булатов С.С. Ўзбек халқи амалий безак санъати. - Тошкент, 1991. - 384 б.; Ўша муаллиф. Ганчкорлик. - Тошкент, 1997. - 89 б.

² Богословская И., Левтеева Л. Нақшин дўппилар сеҳри // Санъат. - Тошкент, 1999. - № 1. - 34-37 б.

iqtisodiy-yuridik asoslari iqtisodchi, xuquqshunos soha vakillari tomonidan mutaxassislik fani nuqtai-nazaridan kelib chiqqan xolda tadqiq etilib, respublikada nashr etiladigan bir qator jurnallarda ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, S.Salaevning maqolasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi Farmonining qabul qilinishi va Farmon asosida joylarda aholini uy mehnati va xizmatlarga jalb etish, ya'ni kasanachilikning joriy etilishi, kasanachilikning yuridik asoslari va me'yorlari, Respublika Prezidenti Farmoni asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Kasanachilik" to'g'risidagi Nizomning qabul qilinishi, Nizomda qabul qilingan shartlar misollar asosida izohlab berilgan.

Mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar rasmiy idoralari va ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlarining milliy xunarmandchilikning viloyatlardagi xolati, rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortdi. Natijada, respublikaning Xiva, Samarqand, Buxoro kabi shaharlaridagi xunarmandchilik sohasini o'rganish barobarida Farg'ona vodiysining yirik xunarmandchilik markazlari bo'lgan Qo'qon, Andijon, Marg'ilon kabi shaharlarida faoliyat olib borayotgan xunarmand ustalarni o'zida aks ettirgan fotoalbomlar nashr ettirildi. Jumladan, AKDTning O'zbekistondagi elchixonasi bilan Andijon viloyati "Xunarmand" uyushmasi hamkorligida viloyatda faoliyat olib borayotgan xunarmandlarning rasmlari tushirilgan "An'analar davomi" nomli fotoalbomning nashr ettirishi fikrimizning dalilidir².

Xulosa qilib aytganda, xunarmandchilik sohasining tarkibiy kismi bo'lgan milliy an'anaviy san'atning sovet va mustaqillik davrlaridagi tarixi va milliy xunarmandchilikni qayta tiklash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, chora-tadbirlarni o'rganishga bag'ishlab yozilgan ilmiy asarlar va maqolalarning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda milliy ana'anaviy san'at sohasiga nisbatan

¹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. - Тошкент, 2006.

² Юсупова М. Анъаналар давоми // (continuing traditions). Фотоальбом. - Тошкент, 2009. - Б. 56.

olib borilgan xukumat siyosati, amalga oshirilgan chora-tadbirlari natijasida xunarmandchilik sohasining sovet davridagi umumiy axvoli, mustaqillik yillarida xukumat tomonidan milliy xunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlantirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlar, turli kasb-hunar yo'nalishlarida berilgan juda ko'p, xilma-xil maqolalarda keng qamrovli faktik materiallar ilmiy iste'molga olib kirilgan. Lekin yuqorida zikr etilganidek, sovet va mustaqillik yillarida xunarmandchilik sohasining rivojlanishi Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida qiyosiy tahlil qilib berilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishi xozirgacha amalga oshirilmagan.

IV – bob. Mustaqillik yillarida ³²xukumatimiz milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlari

Mustaqillik yillarida kasb-hunarni kengaytirish, mazmunan boyitish va takomillashtirish chora-tadbirlari ko'rib kelinmoqda. Ayniqsa, xalq hunarmandchiligiga bag'ishlab 1997 yilning 31 martida respublika Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atni yanada rivojlantirishni davlat yo’li bilan qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi Farmoni¹ ijrosi bo’yicha keng ko’lamli faoliyat amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda xunarmandchilik qadimdan asrlar davomida taraqqiy etib kelmoqda. Xalq ustalari badiiy tasavvur olamining boyligi va shakl xamda naqshlarning mukammalligi bilan xamon bizni xayratga soluvchi noyob buyumlarni meros etib qoldirdilar XX asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy sharoit o'zgarishi tufayli xunarmandchilik maxsulotlari ishlab chiqarish keyingi o'ringa tushib qoldi. O'z mavqeini maxalliy sanoatga bo'shatib berdi. Xozirgi vaqtda mustaqil respublikamizda xalq ustalariga katta axamiyat berilmoqda. Meros va an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, hunarmandlarga yordam ko'rsatish kabi ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hunarmandchilik an'analarini tiklash qonuniy jarayon bo'lib, u milliy madaniyatni saqlab qolishga intilish bilan izoxlanadi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi xukumati xalqimizning milliy kasb-hunarlarini tiklashga qaratilgan talay qarorlar chiqardi. Qator xalq ustalari O'zbekiston Badiiy akademiyasining a'zolari etib saylandi. “O'zbekiston xalq ustasi” unvoni tasis etildi. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning hunarmandlarimizga qarata “Xalq ijodiyotining noyob namunasi siz yo'llagan hunarmandchilik asarlarini qo'rib, behad quvondim: Ular milliy qadriyatlarimizni tiklash, xalq hunarmandchiligi an'analarining rivojlantirish borasidagi say-xarakatlarimiz amaliy natijalar bera boshlaganining yana bir dalilidir.

¹ Халқ сўзи. 1997 йил 1 апрель

Betakror naqshlar, nafis va³³ serjilo rang-tasvirlarga boqib, xalqimiz zakovati, ijodkorlik salohiyati qaytadan uyg'anayotganiga amin bo'ldim. Sizning moxir qo'llaringiz bilan dunyoga kelgan san'at durdonalariga boqib, biz buyuk millat vorislari ekanligimizdan yana bir karra ishonch xosil qildim. Zamonlar o'taveradi, ammo xalq tafakkuri maxsuli bo'lgan mo'jizalar abadiy qoladi.

Qutlug' ayyom Mustaqillik va boshqa milliy bayramlari kunlarida mana shunday ijod namunalarini ko'rish, ayniqsa, maroqlidir. Istiqlol saodati, xurlik zavqi qanchalar bebaho! Ezgu ishlaringizda baxt va omad yor bo'lsin"¹ deb aytgan fikrlarida xam bugungi kun hunarmandlari va hunarmandchiligiga bo'lgan ishonch, yuksak e'tiborlari yaqqol ko'rinib turibdi. O'zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari, musavvirlari "Xunarmand" Uyushmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martidagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" 1741-sonli farmoniga asosan tashkil topgan.

Ushbu farmonga asosan hunarmandlar qat'iy belgilangan soliq va bojxona to'lovlaridan ozod etganlar.

1997-yildan 2008 yilga qadar Uyushma "Musavvir" Ilmiy ishlab chiqarish Markazi tarkibida edi. 2008-yil 5mayda Uyushma Nizomi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida P-265 sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazildi. Xozirda Respublika "Hunarmand" Uyushmasi Nodavlat va notijorat tashkilotlari Milliy Assotsatsiasiga a'zo.

Respublikaning barcha viloyat va tumanlarida uyushmaning boshqarma va bo'linmalari tashkil etilgan. Xozirgi kunda Respublika bo'yicha 13 ta boshqarma, 153 ta bo'lim faoliyat ko'rsatmoqda. Uyushma tomonidan hunarmandlarga xar tomonlama ko'mak berilib, qo'llab-quvvatlab, ularning huquqlari himoya qilib kelinmoqda. Har yili ular ishtirokida turli ko'rgazmalar, auksionlar, tanlovlar o'tkaziladi. Bu esa hunarmandlarning tajriba

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 264.

almashishlarida, o'z maxsulotlarini³⁴ namoyish etishlarida ularni sotishlarida, o'zlarining qobiliyati va mahoratlarini ko'rsatishlarida katta ahamiyatga ega.

Uyushmada kasanachilikni rivojlantirish yangi ish o'rinlarini yaratish borasida xam ishlar olib borilib hozirgi kunda uyushma va uning hududiy boshqarma va bo'limlari tomonidan yaratilgan kasanachilik ish o'rinlari 726 tani tashkil etadi. Hozirgi kunda 2097 nafar uyushma a'zolari O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi a'zosi hisoblanadilar. Milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash ularga kasb-hunar o'rgatish an'alarini davom ettirish maqsadida uyushmada xar yili 600 dan ortiq "Usta-shogird" maktablari tashkil etilib, bu maktablarda 3000 nafardan ortiq shogirdlarga hunar sirlari o'rgatiladi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31 mart 1997 yilgi "Xalq badiiy hunarmandlari va amaliy san'atini tadbirlari to'g'risidagi" 1741-sonli farmoni qabul qilingandan so'ng hunarmandchilik sohasi bexad rivojlandi.

Hukumatimizning qo'llab-quvatlashidan ruxlangan hunarmandlar yanada sifatli, xaridorbop, yuksak dizaynga ega san'at asarlarini yaratmoqdalar. Yildan-yilga "Hunarmand" uyushmasi a'zolari soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar ko'payib bormoqda.

Uyushma tashkil topgan yilda, yani 1997 yilda uyushma a'zolari soni 700 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib ularning soni 21603 nafarga etdi. Hunarmandlar "Navro'z", "Mustaqillik" bayramlari munosabati bilan o'tkazib kelinayotgan tadbirlarda xamda ko'pgina ko'rik tanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. "Tashabbus", "Yosh ijodkor", ko'rgazmasi, "Usta-shogird" ko'rgazmasi, "Qo'li guldir o'zbek ayolin", "O'zbekiston xalq amaliy san'ati-dunyo nigohida", "Mustaqillik nafasida kamol topgan hunarmandlar", "Xalq istemol tovarlari ko'rgazma-savdo", "Yosh kulollarining Respublika ko'rgazmasi", "Bazar Art", "Asrlar sadosi" kabilar shular jumlasidandir.

Uyushma a'zolari nafaqat O'zbekistonda, balki chet davlatlarda o'tkazib kelinayotgan ko'rgazmalar, festivallarda xam faol ishtirok etib, milliy

¹ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т., 1991. –Б.24.

hunarmandchiligimizning targ'ib³⁵ etishda o'zlarining xissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ular 15 nafarining asarlari Santa Fe shaharlari (AQSh) yana uch nafarining asarlari Texronda o'tkazilgan ko'rgazmalarda namoyish etildi. Eron Islom Respublikasi Prezidenti Texron ko'rgazmasida tashrif buyurib, hunarmandlarimizni alohida tabrikladi. Bunday tadbirlardan biri "Hunarmand" uyushmasi va Turkiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan Anqara shahrida o'tkazildi. "Qo'l san'atlari" deb nom olgan xalqaro ko'rgazmada yurtimizda o'n nafar vakil ishtirok etdi. Ko'rgazmada 30 dan ortiq mamlakatlardan hunarmandlar qatnashdi. O'zbekistonlik hunarmandlarning ishlari alohida baholandi. Turkiya televideniyesi o'zbek hunarmandlari ishlari alohida baholandi. Jonli efir orqali ommaga namoyish etildi. Ko'rgazma yakunida Turkiya jumxuriyati Madaniyat va sayyohlik vazirligi qoshidagi "REM FUAR" tashkilotimudiri Remzi Chayir o'zbek usta hunarmandlariga minnatdorchilik bildiradi va xalqaro ko'rgazmaning maxsus faxriy yorliqlarini topshirdi. Bunday mukofot faqat o'zbek hunarmandlariga nasib etdi. Uyushma a'zolaridan: Po'latov Rasul, Dadamuhammedov Faxritdin, Shorasulov Shoolim, Abdullaev Kamoliddin, Sharipova Roziya, Muhammedova Surayyo va boshqa yuzlab hunarmandlar. Yaponiya, Tailand, Afg'oniston, Germaniya, Amerika, Italiya, Malayziya, Xitoy va boshqa chet el davlatlarida o'tkazilgan ko'rgazmalarda faol ishtirok etdilar.

Uyushma a'zolari Prezident sovrini uchun har yili o'tkazib kelinayotgan "Tashabbus" ko'rik-tanlovida xam faol ishtirok etib kelmoqdalar. Ulardan: Buxorolik zargarlar, Samarqandlik kulolar, Farg'onalik yosh kulollar, Buxorolik zardo'z hunarmandlar "Yilning eng yaxshi hunarmandi" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilib Prezident sovrini bilan rag'batlantirildilar. "Hunarmand" uyushmasining mavqei yildan yilga oshib bormoqda. 2009 yilda uyushma Jahon "Hunarmandlar" uyushmasiga a'zo bo'ldi. "Hunarmandlar markazlari" tashkil etila boshlandi. Xozirgi kunda Toshkent viloyatining Chinoz tumanida Hunarmandlar markazi qurildi. Marg'ilon shahrida "Said Axmad Eshon" majmuasida, Samarqandda xamda Andijon viloyati "Hunarmand" boshqarmasi

va Andijon shahar bo'limi uchun³⁶ “Jomiy” masjidi majmuasida xam hunarmandlar markazi tashkil etildi. 2009 yilda Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan Antikvar mahsulotlarni sotish huquqini beradigan ruxsatnoma olishga erishildi. O'zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi va Karim Boboev rahbarligidagi “Ishonch” Banklararo sug'urta kompaniyasi bilan 2012 yil 15 mayda tuzilgan A №12-04G'10117-sonli shartnomaga asosan uyushma a'zolarini ijtimoiy ximoyalash ishlari amalga oshirilmoqda.¹

Xozirgi kunda 1500 nafarga yaqin uyushma a'zolari sug'urta qilindi. Xozirda hunarmandlarimiz tomonidan Istiqlol yillarida mamlakatimizda xalqimizning bir necha ming yillik boy va bebaho milliy qadriyatlarni qayta tiklash va ezgu an'alarimizni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Marg'ilonlik hunarmandlarimiz Mirzaxmedov Rasuljon va Mirzaxmedov Raximjonlar eng qadimgi matolarimizdan Banoras va adraslarni unutilib ketgan Qudin usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar. Buyuk sohibqiron Amir Temur davridagi sipohlarning tagiga to'shalgan gilam farg'onalik hunarmand Ibroximjon Sultonov tomonidan qaytatiklandi. Bundan 100 yililgari ipakdan to'qiladigan G'jari bo'g'jama Boysun hunarmandlari tomonidan qayta tiklandi. Surxandaryo iroqi do'ppilari, shofirkonlik kashta tikuvchi hunarmandlar Obloberdieva Zuhra, Ro'zieva Oysara tomonidan shofirkon kashtachilik maktabida uzoq tarixga ega bo'lgan kashtalar turlari tiklanmoqda. Buxorolik zardo'z hunarmandlarimiz Salimova Mahfuza, Yunusova Robiya, Farmonova Munavvarlar tomonidan zardo'zchilikni shakardo'zi, xishti-haram, chashmi bulbul, ocha bacha, sitido'zi tikish texnikalari qayta tiklandi, misgarlik, ipak gilam to'qish, ganch o'ymakorlik yangi turlari, ya'ni tokchalar terish, oyna zaminli o'yma panjaralar yasash, mukarnas va iroqi sharofalar, qandillar, chaspak va kirma kiritish usullari qayta tiklandi, zargarlikning filigran, quyma, issiq emal va bosma turlari, temirchilik turining Damashq po'lati, milliy oyoq kiyimlarining ost qismida ishlatilgan cho'p mixlardan foydalanish, quroqdo'zlik san'atida uy-ro'zg'or buyumlarini tikish G'ijduvon ustalari tomonidan qayta

¹ Ортикова М. Хунармандлар шахри. – Тошкент: Заркалам, 2006. – Б. 142.

37
tiklandi. Samarqand viloyati “Hunarmand” boshqarmasi a’zosi Ismatullaev Xolmamat tomonidan o’rta asrlarda ishlatilgan bir tomonida pilik uchun cho’zinchoq burunchasi bo’lgan yog’ chiroqlar va o’sha davrda ishlatilgan suv qaynatish uchun samovar nusxasi samarqandlik usta-misgar Mexriddin Xaitov tomonidan qayta tiklandi.

Usta-hunarmand Sharif Azimov II-III asrlarda yo’qolib ketgan Kushon davlati davrida yaratilgan kulolchilik maxsulotlarini qayta tikladi. Bu mahsulotlarga oyog’i uzun qadaxlar, turli shakl va xajmdagi kosalar va ko’zalar kirardi. Bu mahsulotlarning asl nusxalari Surxandaryo viloyati hududidagi Kushon va Ayritom harobalarida olib borilgan qazilma ishlari vaqtida topilgan hamda Respublika muzeylarida saqlanmoqda. O’rganish ishlarini olib borgan Sharif Azimov Kushon podsholigi davriga xos 40 ga yaqin asalar yaratib ularga rang va bezak berish usullarini xam tikladi.¹

Xorazm viloyatida xivalik hunarmandlar Ro’ziboev Rustam tomonidan misgarlik hunari qayta tiklandi. Xiva tumanidan gilam to’quvchi hunarmand Matkarimov Madrin va bir guruh Xivalik hunarmandlar tomonidan ist’edodli rassom Kamoliddin Behzod qalamiga maesub bo’lgan tasvir aks ettirilgan gilam qayta tiklandi. Ushbu dizayn 15 asr miniatyurasidan olingan bo’lib she’riyat va tarixiy kitoblarning nusxalariga bezak berish uchun ishlatilgan, bizning dizaynlarimizning bir qanchasi 500 yil ichida birinchi marta qayta jonlantirildi. Temuriy dizayn ramkalari alohida ajralib turadi. Ushbu ramkalar kubik yozuvlardan olingan bo’lib, vaqt uslublashtirilgan, ular orqali Temuriylar dizaynlarini osonlikcha ajratish mumkin. Kamoliddin Behzod gilam atrofida o’tirgan bir guruh keksa kishilar tasviridan olingan. Behzod qalamiga mansub ushbu gilam Xiva, Ichan qal’a ichida joylashgan Yaqubboy Xo’ja madrasasida joylashgan gilamchilar tomonidan to’qilgan.

¹ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Т.; 1991. – Б. 153.

Namangan viloyatining Uychi³⁸ tumanida popopchilik, Namangan tumanida jundan ro'mol to'qish, Chortoq tumanida oq iroqi duppilarni tikish qayta tiklandi.

Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida 1925-1952 yillar davrida faoliyat yuritgan. 1952 yildan boshlab unutilib ketgan chitgarlik hunari qayta tiklanib, 2010 yil yanvar oyida Marg'ilondagi Said Ahmad Xo'ja Eshon madrasasida ustaxona tashkil qilinib, yoshlarga chitgarlik hunari o'rgatilib kelinmoqda. Andijonlik musiqa asboblari yasovchi usta- hunarmand Madraimov Abdumalik tomonidan "G'ijjaki Boburiy", "Dilrabo", "Dilnavo", "Meros", "Qushnavo", "Qo'shtor" deb nomlangan ajoyib sozlar kashf qilindi. Yaqinda A.Abduraimov uzoq yillik ilmiy va amaliy izlanishlari natijasida qadimiy Chang cholg'u asbobini yangi namunasini yaratdi. Bu cholg'u asbobini tayyorlashda o'g'illari MadraimovSardorbek va shogirdlari Ilxom Abdurazzoqov, Nasibullo Boltaboevlar qatnashdilar.

Andijon viloyati Xonobod shahar hunarmandlari tomonidan sholcha to'qish hunarmandchilik turi, Andijonlik hunarmand Qodirov Mutalibjon tomonidan mato to'qish, Fozilov Qodirjon va Ergashev Oyatullo tomonidan an'anaviy zargarlik, Asakalik hunarmand Qodirova Mahbuba tomonidan do'ppido'zlik, Azimova Mahbuba tomonidan kashtachilikning bosma va iroqi choklari, Andijon tuman bo'limi hunarmandi Zokirova Manzuraxon tomonidan qizlar va erkaklar do'ppisining qirhohiga qo'yiladigan jiyaklar to'qish, Shahrixonlik chopon tikuvchi hunarmandlar tomonidan parpasha va silon to'nlarni tikish, kosib hunarmand Xotamov Nuriddin tomonidan esa qadimdan qolgan kiyik teri ontarma etiklarini va tabiiy holatda junli teridan tikilgan erkaklar mahsilari tikishni, Xorazm viloyatida hunarmandlar tomonidan mis o'ymakorligi, Navoiy viloyatidan hunarmand Rahimov Toir tomonidan toshtaroshlikning bo'rtma usuli, hunarmandlar To'raqulova Ruxsaroy tomonidan Nurota kashtachiligining iroqi tikish, yo'rma tikish usullari, Buxorolik hunarmandlar ipak gilam to'qishni, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahar

hunarmandlari qo'y junidan gilam to'³⁹qishni, Temuriy malikalar kiyadigan milliy liboslarning eski naqshlari tiklanib zamonaviy liboslarda o'z aksini topdi.¹

Qashqadaryolik kashta ustasi Mamadalieva Zilola tomonidan yangi bigiz kashtachilik usulida tikish yo'lga qo'yildi. Qoraqalpog'istonlik hunarmandlar tomonidan Qoraqalpoq milliy kashtachiligi, do'ppido'zlik, qurok tikish kabi xalq amaliy san'ati namunalari, Samarqandlik hunarmandlar tomonidan jundan xarir ip yigirib mato to'qish va tikish yo'lga qo'yildi. Shu jarayonning o'zida qadimiy ip yigirish va mato to'qish dastgohlari xam tiklandi. Qurbonov Muhammadyusuf Ro'zimurodovich hamda bir guruh uyushma a'zolari Sohibqiron Amir Temur davridagi badiiy asarlarga chizilgan miniatyura asarlari qayta tiklanib, 30 dan ortiq turdagi xalq amaliy san'ati asarlari poytaxtidagi Amir Temur muzeyiga sovg'a qilindi.

Bulardan: "Majnun qibla eshigining yonida", "Naufal jangi", "Sulton Xusayn Mirzo saroyida bazm" miniatyurasi, "Muxammad payg'ambar safdoshlari bilan", "Iskandar va etti dono" miniatyurasi, "Qabilalar jangi" miniatyurasi, "Laylining Majnunni ko'rish istagida cho'lga kelishi" miniatyurasi, "Kampir Sulton Sanjardan so'rab iltimos qilmoqda" miniatyurasi, "Majnunning tug'ilgan kuni" miniatyurasi, "Shirin o'z saroyida xusravni qabul qilyapti" miniatyurasi, "Qri so'fiy va yosh yigit" miniatyurasi, "Amir Temur shahzodalarni qabul qilmoqda", "Urganch devorlari yaqinidagi jang", "Umarshayx qo'shinlari ankatur armiyasiga xujum qilmoqda", "Sadiy vayosh qashg'arlik", "Amir Temur qo'shinlari Smurna qal'asini zabt etmoqda", "Darveshlar o'yini" shular jumlasidandir.

Uyushma kengashi raisi Muhammad Yusuf Qurbonov va Baxodir Asaev g'oyasi asosida. Mustaqillik yillarida Muxtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan qayta ta'mirlangan tarixiy obidalar qadimiy uslubdagi miniatyura, naqqoshlik, xattotlik va tillaqoshlik san'ati uyg'unlashgan yangi san'at asarlari suratlari jamlanmasi yaratildi. Ushbu suratlar jamlanmasini tayyorlashdanaqqosh Shoolim Shomansurov, musavvir Xayrulla Muxiddinov, Muzaxxit Temur

¹ Шамсутдинов Р. Андижон тарихидан лавҳалар. – Т., 2013. – Б. 328.

Shomansurov, terichi A.Muxammadaliyev⁴⁰ va shoir Barnobek Eshpo'latovlar o'z hissalarini qo'shdilar.¹

Hunarmandlarimizning kamtarona mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib kelmoqda. Xalqimiz orasida “Hunarli kishi xor bo'lmas”, “Hunar hunardan risqing unar” kabi maqollar bexudaga aytilmagan. Xozirgi kunda barcha hunarmandlar o'zlarining hunarlari xalol mehnatlari evaziga farovon hayot kechirmoqdalar, qolaversa davlatimizning Muxtaram Prezidentimiz va hukumatimizning hunarmandlarga ko'rsatayotgan e'tibori, g'amho'rlikiga javoban jonajon O'zbekistonimizning ravnaqi yo'lida tinmay mehnat qilmoqdalar. Qadimiy madaniy o'choqlardan hisoblangan Farg'ona vodiysi ham xamisha yirik hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo'lib kelgan. Azaldan vodiyni katta kichik shahar va qishloqlarida xilma xil hunarmandchilik turlari rivoj topib kelgan. Chunonchi, ko'plab hunarmandchilik turlari qatorida bu erda kulolchilik, metal va yog'ochdan buyumlar tatsyorlash va ularga naqsh berish usullari xilma xil mato to'qish hunarmandchiligi, ko'ncilik va hunarmandchilikning nodir tarmog'i qog'ozgarlik yuksak darajada rivoj topgan.

Darhaqiqat, vodiylar hunarmandlari o'zlarining yuqori sifatli va jozibador hunarmandchilik maxsulotlari bilan butun dunyoda mashhur bo'lgan hunarmandchilik mazkur hududdagi o'troq va yarim o'troq aholi xo'jalik tarmoqlarini rivojlanishi, vodiya ikki xil ukladli xo'jalik yo'nalishini o'zaro uyg'unlashtirgan xolda umumvodiylar ichki iqtisodiyotini shakillanishida muhim o'rin tutgan. 19 asrning ikkinchi yarmida Rossiyada tayyorlangan arzon fabrika mahsulotlarining o'lkamizga kirib kelishi natijasida tarmoqning bir qancha muhim sohalari tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. Lekin ayrim sohalar shu davrda ham o'zining vodiylar iqtisodiyotidagi muhim o'rnini saqlab qola oldi.

Bugungi dolzarb masalalardan biri Farg'ona vodiysi hunarmandchilik maktabining avvalgi salohiyatining qayta tiklash, eng muhim an'analarini qayta jonlantirib, ular negizida yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish, soha tarixini

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т. 2005. – Б. 459.

o'rganishdan iboratdir. Bugungi kunda⁴¹ vatanimiz tarixi xolisona o'rganilayotgan davrda mamlakatimiz xar bir go'shasining chuqur o'rganilagn tarixini yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k”.¹ Bu o'rinda hunarmandchilik tarixining tadqiq qilinishi vodiyniing turli markazlarida ma'lum hunar turlari qanday asosda vujudga kelganligi, rivoj topganligini, bu joylarda qanday mashhur hunarmandlar faoliyat yuritgan va mahsulot tayyorlashda o'ziga xos usullarni ishlab chiqqanligini aniqlash, vodiyni hunarmandchilik maktabi hususiyatlari tayyorlangan mahsulot turlari xamda bu buyumlarning aholi maishiy turmushidagi o'rnini, hunarmandchilik qanday sabablarga qo'ra tanazzulga uchrashi tarixini o'rganish, yurtimiz tarixini hamda ayrim milliy an'analarni yanada chuqurroq o'rganilishini taminlaydi.

Hunarmandchilikni Farg'ona vodiysida xam azaldan turli sohalari rivojlanib kelgan. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari bo'lgan maishiy turmush buyumlarini tayyorlash, ya'ni kiyim-kechaklar, zebi-ziynatlar ishlab chiqarish doimiy ravishda kengayib bordi. Shahar hunarmandlari mahsulotni bozor uchun ishlab chiqargan bo'lsalar, qishloq hunarmandlari esa dastlab o'zlarining ehtiyojlari uchun buyumlar tayyorlanganlar.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o'tdi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999 yil 14 aprel) kuyidagi oltita ustuvor yo'nalish bilan to'ldirildi:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.

¹ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т. 1998. – Б. 6.

2. Jamiyat ma'naviyatini yanada⁴² yuksaltirish.
3. Kadrlar masalasi.
4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.
5. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash.
6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz yaxlitligini ta'minlash¹.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti O'zbekiston davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo'lib qoldi. Bu yo'lni shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning qo'yidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

➤ ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini bosqichma – bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim yaratish;

➤ ko'p ukkladli iqtisodiyotni yaratish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o'sishi uchun asos bo'ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

➤ korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan – to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma'muriy – buyruqbozlik usullarini yo'q qilish, iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlarni keng qo'llash;

➤ moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishini ta'minlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

➤ iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

¹ Каримов И. А. Ўзбекистан XXI асрга интиломоқда. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –Б. 15-19

- jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;
- kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini qo'llash sohalari va shakllarini o'zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy – islohotlarning asosiy va muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o'tkir ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal etishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- mulkiy islohotlar;
- institutsional va moliya – kredit islohotlari;
- agrar islohotlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari;
- ijtimoiy sohadagi islohotlar.¹

Tadbirkorlik shakllari:

1. Xususiy (shaxsiy) tadbirkorlik;
2. Yollanma mehnatni jalb qilib amalga oshiriladigan tadbirkorlik;
3. Bir necha fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

1995 yil 5 yanvarda e'lon qilingan **«Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida»**gi Prezident farmoni mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishga yangi turtki berdi. Farmonga binoan davlat mulkini xususiylashtirishdan tushayotgan mablag'larning 50 % kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirildi.

1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining **«Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida»**gi Qonuni iqtisodiyotning mazkur sektoriga davlat va mintaqaviy darajada

¹ Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013. – B. 550.

rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Davlat darajasida xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun huquqiy – normativ asoslar, zarur infratuzilma va shart – sharoitlar yaratildi. Mintaqaviy (viloyat, shahar, tuman) darajasida esa tadbirkorlarga mahalliy soliq va yig'imlar solishda engilliklar berildi, bu sektorni rivojlantirish uchun hududiy dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirish tadbirlari ko'rildi.

Kichik biznesga ko'maklashish maqsadida respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi – Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab – quvvatlash fondi (Biznes – fond, 1995 yil iyul), «Madad» sug'urta agentligi (1995 yil 26 iyun), O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi (1996 yil martda) ularning hududiy bo'limlari tashkil etildi. O'rta va kichik biznesning rivojlanishiga **Dehqon va fermer xo'jaliklari assotsiatsiyasi, «Hunarmand» assotsiatsiyasi, Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi** ham ko'maklashmoqda.¹

Kichik biznesni rivojlantirishga chet ellik investorlarning va dunyodagi nufuzli banklarning, jumladan, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining kredit resurslari jalb etilmoqda. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab – quvvatlash markazini, Evropa hamjamiyati komissiyasi esa amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi o'zbekistonlik tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar.

1998 yil 9 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. 2001 yil 22 avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi **«Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish**

¹ Shamsutininov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013. – B. 557.

*tizimini takomillashtirish to'g'risida*⁴⁵» qaror qabul qildi. Qarorga binoan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojtirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlariga Respublika tovar – xomashyo birjasi, Agrosanoat birjasi, «O'zulgurjisavdo» orqali moddiy – texnika resurslari sotildi.

Tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida xo'jalik sub'ektlarida **«Tekshirishlarni ro'yxatga olish daftari»** joriy etildi. Kichik biznes sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi, ular o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni naqd xorijiy valyutaga eksport qilishga ruxsat berildi.

Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab – quvvatlash borasida ko'rilgan tadbirlar natijasida ularning soni yildan yilga ko'payib bordi.

2010 yil 7 dekabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2011 yilni – mamlakatimizda **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik** yili deb nomlashni taklif qildi.¹

Qayd etish lozimki, o'tgan yillar davomida respublikamizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining ko'p asrlik an'alarini saqlab qolish, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, hunarmandchilik kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli, mustaqil va ommaviy yo'nalishiga aylana olmadi.

“Hunarmand” uyushmasi, berilgan imtiyozlar va qulayliklarga qaramasdan, o'z saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab ololmadi, uyushmaga a'zo bo'lganlar soni hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilarning kam qismini tashkil etmoqda. Hunarmandchilik markazlarini sayyohlik salohiyatidan keng foydalangan holda tashkil etish ishlari holati qoniqarsizligicha qolmoqda, hunarmandlarga moliyaviy va xom ashyo resurslari

¹ Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013. – B. 558.

ajratish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni⁴⁶ sotish, shu jumladan, eksport qilish uchun sharoit yaratishga yordam berish ishlari samaradorligi etarli darajada emas.

Shunga ko'ra, hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarnitizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy me'rosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqiyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017 yilning 17 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.¹

Farmon bilan respublikada milliy hunarmandchilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga er maydonlari va binolar ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, imtiyozli kreditlar berish, hunarmandchilik mahsulotlarini sotish va eksport qilish, shuningdek, respublikamizning tuman va shaharlarida hunarmandchilikni rivojlantirish markazlarini tashkil etish va "Usta – shogird" maktablari faoliyatini takomillashtirish ishlari belgilandi.

Farmonga binoan, "Hunarmand" uyushmasi saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab olish, shuningdek, hunarmandchilikni kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli mustaqil yo'nalishiga aylanishiga yo'l bermayotgan uyushmaning cheklangan salohiyati bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida, shuningdek, "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarori

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони "Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб – қувватлаш чора тadbirlari тўғрисида". // Халқ сўзи. 2017 йил 21 ноябрь № 234 (6928) сони

hunarmandchilik yangi sub'ektlarini⁴⁷ tashkil etishni rag'batlantirish, ular faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish, hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar va oilalarni har tomonlama qullab-quvvatlash, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantirish, oilalar turmush darajasi va sifatini, ayniqsa, qishloq va chekka tumanlarda oshirish ishlarini tashkillashtirishni sifat jihatidan yanada yuqori darajaga ko'tarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Qayd etish lozimki, o'tgan yillar davomida respublikamizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining ko'p asrlik an'analarini saqlab qolish, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, hunarmandchilik kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli, mustaqil va ommaviy yo'nalishiga aylana olmadi.

“Hunarmand” uyushmasi, berilgan imtiyozlar va qulayliklarga qaramasdan, o'z saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab ololmadi, uyushmaga a'zo bo'lganlar soni hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilarning kam qismini tashkil etmoqda. Hunarmandchilik markazlarini sayyohlik salohiyatidan keng foydalangan holda tashkil etish ishlari holati qoniqarsizligicha qolmoqda, hunarmandlarga moliyaviy va xom ashyo resurslari ajratish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish, shu jumladan, eksport qilish uchun sharoit yaratishga yordam berish ishlari samaradorligi etarli darajada emas.

Shunga ko'ra, hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarnitizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy me'rosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqiyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017 yilning 17 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi.¹

O'zbek xalqi qadimdan hunarmandchilik, kashtachilik va gilamdo'zlik kabi amaliy san'atning ko'plab turlari bilan shug'ullanib kelgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб – қувватлаш чора тadbirlari тўғрисида”. // Халқ сўзи. 2017 йил 21 ноябрь № 234 (6928) сони.

Shunday qilib malakaviy bitiruv⁴⁹ ishimiz yakunlar ekanmiz quyidagi xulosalarni alohida e'tirof etishni maqsadga muvofiq deya hisobladik?:

- Viloyatlar va vohalar kashtachiligi va gilamdo'zligi bir-biriga juda yaqin bo'lgan shu bilan birga, ular orasida ahamiyatli farqlar ham uchraydi. Deyarli barcha viloyat va vohalarda kashta buyumlari *bosma*, *yo'rma* choklarda tikiladi, faqatgina Shahrisabzda *iroqi* kashtasi urf bo'lgan.

- Kashta buyumlari, ularning hajmi, foydalanilgan matolari va rangli iplari deyarli farq yo'q. Biroq, kashtadagi naqshlar, to'pbarglarning nomlanishi, ularning joylashishi, hoshiyalarning tikilishi, ular ichidagi naqshlarda sezilarli farq bor. Ba'zi chevarlar o'y-xayollaridagi naqshlarni o'zlaricha ham ifodalab, talqin qilishadi.

- o'zbek zamonaviy kashtachilik buyumlari nihoyatda qiziqarli va deyarli o'rganilmagan ma'lumotlar beradi. O'zbek kashtachiligining kelib chiqishi, unga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish va uni tiklash loyihalarini rejalashtirishda qadimgi kashtachilikning naqsh va texnologik uslublarining ajoyib an'analari davom ettirilmoqda.

- shuni alohida ta'kidlash joizki, o'tkazilgan barcha loyihalarining samarali bo'lishi, olim-mutaxassislarning xalq san'atini, xususan, an'anaviy kashtachilikni chuqur ilmiy o'rganishi, ularning bilimlariga va tavsiyalariga bog'liq;

- O'zbek xalq amaliy san'atini etnografik jihatdan o'rganish va an'anaviy hunarmandchilik an'analariini tiklash hamda o'rganish bugungi kunda nihoyatda muhimdir.

Respublika Prezidenti tomonidan qabul qilingan «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2008 yil 1 apreldagi PF-3983 sonli, 2010 yilning 30 martidagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmonlari Xalq ijodiyoti sohasiga aholining keng qatlamini, ayniqsa yoshlarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash yo'llari belgilab berildi. Bular ayniqsa yoashlar,

ayollar va kam ta'minlangan⁵⁰ oilalar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR⁵¹

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсақасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб – қувватлаш чора тадбирлари тўғрисида”. // Халқ сўзи. 2017 йил 21 ноябрь № 234 (6928) сони.
5. Абдуллаев Т. XIX-XX асрларда Ўзбекистон кандакорлик санъати. . – Т.:, 1994.
6. Алимов Ҳ. Шаҳрихонликлар. Фарғона, 1996.
7. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Т.:, 1991.
8. Булатов С. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т.:, 1991.
9. Бугунги Андижон. Тошкент - “Ўзбекистон”, 2006.
10. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Т.: Шарқ, 1998.
11. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. -Т.: Шарқ, 2001.
12. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). Т.: Шарқ. 2006.
13. Ортикова М. Хунармандлар шахри. – Тошкент: Заркалам, 2006.
14. История Андижана в документах и материалах (1876-1917гг) Том второй. Составители: Шамсутдинов Р.Т., Хошимов С.А., Бозоров Қ. Ташкент, Sharq, 2012.

15. Мирзоолим Мушриф. Қўқон⁵² хонлиги тарихи. - Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
16. Набийев А. Тарихий ўлкашунослик.-.: Ўқитувчи, 1996.
17. Прица М. «Тошкент ганчкорлиги». – Т.: 1960.
18. Рахимов М. «Кушон» туркумидаги чиннилар. Тошкент, 1974.
19. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Кўҳна ва навқирон Андижон.- Т.: Шарқ, 2010.
20. Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар.- Т.: Шарқ, 2013.
21. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Т.: Sharq, 2013.
22. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 2-kitob.- Т.: Sharq, 2016.
23. Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Т., «Шарқ» 2000.
24. Хасанов Р. Амалий безак санъати методикаси. – Т.: 2003.
25. Ergashev F. Turkistonda hunarmandchilik va pillachilik. – Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2004-yil, 3-son.
26. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12-жилдлик. -Т.: ЎзМЭ, 2000 - 2005.
27. Ниғмонов Б.И, Эрматова А.Б. Нақши нигоралар. Методик қўлланма. –Т.: 2010.
28. Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси” мавзусидаги республика илмий амалий анжуман материаллари.– Т.: Шарқ, 2004.
29. Абдуразакова А.А. XIX аср охири – XX аср бошларида ўзбек хотин-қизларининг чеварчилик касб-хунари // Общественные науки в Узбекистане. 1998. № 1.
30. Ўроқов М.Б. Каштадўзлик ва тўқимачиллик хунарларига оид атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. № 6;
31. Мамадиёрова Ю. Шахрисабз ироқи каштачилиги // Мозийдан садо. 4. (40) 2008.

Internet materiallari

1. Ziyonet.uz.
2. Ziyouz.com.